- Raqamli savodxonlikni oshirib borish, zamonaviy raqamli muhitda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarini rivojlantirish.

- Ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta‘lim va kasbiy faoliyatda yangi bilimlar egallash va mavjud bilimlarni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

"Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" fani quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi:

1) Nazariy bilimlar bazasini shakllantirish: apparat ta‘minoti, dasturiy ta‘minot, matnli, jadvalli, taqdimotli axborotlarni, ma‘lumotlar bazasi va kompyuter tarmoqlari, telekommunikatsiya tizimlarini o‘z ichiga olgan axborot texnologiyalari asoslarini o‘rganish;

2) Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. AKT vositalarini egallash — ofis ilovalari, ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, veb-texnologiyalar, tarmoq xizmatlari va raqamli kommunikasiyalar bilan ishlash;

3) Axborotni tahlil qilish va qayta ishlash usullarini o‘zlashtirish. Axborot resurslarini izlash, tahlil qilish, tuzilmashtirish va talqin qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Axborotning ta‘rifi

Axborot — bu tirik organizmlar, elektron qurilmalar va boshqa tizimlar tomonidan borliq haqida, jarayonlar, predmetlar va hodisalar to‘g‘risida qabul qilinadigan har qanday ma‘lumotdir¹.



¹ X.Urdushev, M.Mavlyanov, S.Eshanqulov. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. I-qism. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 188 b.

Axborot – bu, yaratuvchisi doirasida qolib ketmagan va xabarga aylangan, bilimlar noaniqligi, to‘liqsizligi darajasini kamaytiradigan hamda og‘zaki, yozma yoki boshqa usullar orqali ifodalash mumkin bo‘lgan atrof-muhit to‘g‘risidagi ma’umotlardir.

1) Ma’lumot. Ma’lumot - bu biror obyekt, hodisa yoki jarayon haqidagi faktlar, belgilar, signallar yoki kuzatuvlarning qayd etilgan shakli.

Ma’lumotlar o‘z-o‘zidan ma’noga ega bo‘lmaydi, ular qayta ishlanmagan va tartibga solinmagan holatdagi faktlarni ifodalaydi. Masalan, alohida olingan sonlar, matn bo‘laklari yoki rasmlar ma’lumot bo‘lishi mumkin. Fermer har bir sigirning sut sog‘ish vaqtidagi sut miqdorini qayd qilib boradi. Har bir sigir uchun alohida qayd etilgan sut miqdori - bu ma’lumot bo‘lib, u hali qayta ishlanmagan va tartibga solinmagan holatda saqlanadi.

2) Berilganlar. "Berilganlar" atamasi "ma’lumot" atamasiga juda yaqin ma’noni anglatadi va ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi.

Berilganlar - bu qayd etilgan, kodlangan yoki raqamli shaklda taqdim etilgan faktlar, sonlar, belgilar yoki ko‘rsatkichlardir. "Berilganlar" atamasi ko‘proq axborot texnologiyalari kontekstida, ya’ni kompyuterlarda saqlanadigan va qayta ishlanadigan ma’lumotlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, ma’lumotlar bazasida saqlanayotgan ma’lumotlar, elektron jadvaldagi sonlar yoki dastur kodi berilganlar hisoblanadi. Fermer xo‘jaligidagi barcha sigirlardan sog‘iladigan kunlik sut miqdori, yoshi, vazni va boshqa ko‘rsatkichlari elektron jadvalga kiritiladi. Ushbu jadvaldagi barcha ma’lumotlar - berilganlardir.

3) Axborot. Axborot - bu ma’noga ega bo‘lgan, tartibga solingan va qayta ishlangan ma’lumotlar.

Axborot texnologiyalarida "axborot" atamasi ma’lumotlar qayta ishlangandan va ma’noga ega bo‘lgandan keyingi holatni ifodalaydi. Axborot - bu biror bir obyekt, hodisa yoki jarayon haqidagi ma’lumotlarning qayta ishlangan va ma’noga ega bo‘lgan shaklidir. Axborot qaror qabul qilish, bilim olish va tushunish uchun qo‘llaniladi. Fermer elektron jadvaldagi berilganlarni tahlil qilib, qaysi sigirlar eng ko‘p sut berayotganini, qaysilarini esa rasionni o‘zgartirish yoki sotish kerakligini aniqlaydi. Sigirlarning sut berish samaradorligi haqidagi xulosalar - bu axborot bo‘ladi.


Boshqacha qilib aytganda, axborot – bu tahlil qilish, filtrlash va qulay shaklda taqdim etish orqali boshlang‘ich ma’lumotlardan olingan foydali va tartibga solingan bilimlardir.

4) Xabar. Xabar - bu biror shaxs yoki manbadan boshqa shaxsga yoki manbaga yetkazilgan ma’lumot yoki axborot.


Xabar og'zaki, yozma, elektron yoki boshqa shaklda bo'lishi mumkin. "Xabar" atamasi ma'lumot yoki axborotni yetkazishni anglatadi, lekin ATda ko'proq kommunikasiya jarayoniga urg'u beriladi. "Xabar" atamasi ma'lumotning uzatilishi va qabul qilinishi jarayonini, ya'ni kommunikasiyani anglatadi. Veterinarning fermerga sigirlarning sog'lig'i, emlanganligi yoki kasalliklarga chalinganligi haqida bergan ma'lumoti – xabar bo'ladi. Shuningdek, elektron pochta orqali yuborilgan axborot, telefon qo'ng'irog'i yoki ijtimoiy tarmoqdagi post ham xabar hisoblanadi. Xabarlar fermer va boshqa mutaxassislar o'rtasida muhim ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi.

Axborotni o'lchov birliklari

Axborot texnologiyalarida axborot miqdori ikkilik sanoq tizimi asosida o'lchanadi, chunki kompyuterlar ikkilik holatlar (yoqilgan/o'chirilgan, 0/1) bilan ishlaydi.



1) Bit (bit). Bu axborotni o'lchashning eng kichik birligi. Bir bit bitta ikkilik raqamni (0 yoki 1) ifodalaydi. Bit ikkita teng ehtimolli voqea o'rtasidagi tanlovni kodlash imkonini beradi. Masalan, lampochkaning holati (yoqilgan/o'chirilgan) 1 bit bilan ifodalanishi mumkin. "Ha" yoki "Yo'q" javobi ham - 1 bit. Ikkita buyruqdan birini tanlash ham - 1 bit.



2) Bayt (Byte). Axborotni o'lchashning asosiy birligi, 8 bitni tashkil qiladi (8 ta 0 yoki 1). Masalan, 10101110. Bayt ma'lumotlar hajmini o'lchash uchun eng kichik birlikdir, chunki 8 bit ko'plab standart kodlashlar (masalan, ASCII) bitta belgini (harf, raqam, tinish belgisi) uchun yetarlidir. Masalan, ASCII kodlashdagi "A" harfi kompyuterning xotira qurilmasida 1 baytni, 17 ta belgidan iborat

“Samarqand DVMCHBU” xabari 18 baytni egallaydi.

3) Kompyuterlarda axborotlar o'lchamini aniqlashda quyidagi o'lchov birliklari ketma-ketligi qo'llaniladi:

Nomi	O'lchami	2 ni darajalari sifatida
1 <u>bayt</u> (b)	8 bit	$2^3=8 \text{ bit} = 1 \text{ bayt (b)}$
1 <u>kilobayt</u> (Kb)	1024 bayt	$2^{10} = 1024 \text{ b}$
1 <u>megabayt</u> (Mb)	1024 kilobayt	$2^{20} = 1\,048\,576 \text{ b}$
1 <u>gigabayt</u> (Gb)	1024 megabayt	$2^{30} = 1\,073\,741\,824 \text{ b}$
1 <u>terabayt</u> (Tb)	1024 gigabayt	$2^{40} = 1\,099\,511\,627\,776 \text{ b}$
1 <u>petabayt</u> (Pb)	1024 terabayt	$2^{50} = 1\,125\,899\,906\,842\,624 \text{ b}$
1 <u>eksabayt</u> (Eb)	1024 petabayt	$2^{60} = 1\,152\,921\,504\,606\,846\,976 \text{ b}$

1 <u>zettabayt</u> (Zb)	1024 eksabayt	$2^{70} = 1180591\ 620\ 717\ 411\ 303\ 424\ b$
1 <u>yottabayt</u> (Yb)	1024 zettabayt	$2^{80} = 1208925819614629174706176\ b$

Axborot jarayonlarining texnik va dasturiy ta'minoti — bu axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va himoya qilish uchun ishlatiladigan apparat vositalari va dasturiy ta'minotlar majmuidir.

Yoki boshqacharoq qilib aytganda, axborot jarayonlarining texnik va dasturiy ta'minoti deganda, turli xil boshqaruv, kommunikatsiya va ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlarida axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va himoya qilish uchun foydalaniladigan apparat va dasturiy vositalar majmui tushuniladi.



Axborot jarayonlari – bu axborot bilan bog'liq bo'lgan harakatlar yoki operatsiyalar ketma-ketligidir. Ular axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va ulardan foydalanishga qaratilgan. Axborot jarayonlari axborotni yaratish, yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish, himoya qilish va undan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Axborot jarayonlari:

1) **Axborotni yaratish:** Bu yangi axborotlar, g'oyalar yoki bilimlarni ishlab chiqish jarayonidir. Masalan, sohaga oid tadqiqotlar o'tkazish va yangi ilmiy axborotlarni e'lon qilish, hisobot yozish, maqola tayyorlash.

2) **Axborotni yig'ish:** Bu kuzatish, so'rovlar, o'lchovlar, eksperimental tadqiqotlar va atrof-muhit monitoringini o'z ichiga olgan turli manbalardan axborot olish jarayoni. Masalan, anketa so'rovlarini o'tkazish, veb-saytlardan ma'lumotlarni yig'ish, tajribalardan ma'lumotlarni olish.

3) **Axborotni qayta ishlash:** Bu foydali xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish uchun tahlil qilish, saralash, filtrlash, hisoblash va hisob-kitoblar orqali dastlabki (boshlang'ich) ma'lumotlarni o'zgartirish jarayoni. Masalan, qishloq xo'jaligiga oid statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, matnni tahrirlash, rasm va tasvirlarni qayta ishlash.

4) **Axborotni saqlash:** Bu axborotni ma'lum vaqt davomida ularning mavjudligi va yaxlitligini ta'minlaydigan tarzda saqlash jarayoni. Masalan, ma'lumotlar bazasida axborotlarni saqlash, hujjatlarni arxivda saqlash, fayllarni disklarda yoki bulutli joylarda saqlash.

5) **Axborotni uzatish:** Bu telekommunikatsiya tarmoqlari, elektron aloqa kanallari va fizik tashuvchilar orqali turli manbalar o'rtasida axborotlarni uzatish

jarayoni. Masalan, elektron pochta orqali xabar jo‘natish, ma’lumotlarni kompyuter tarmog‘i orqali uzatish, radio orqali xabar berish.

6) Axborotni himoya qilish:

Axborotlarni ruxsatsiz kirish, o‘zgartirish yoki yo‘qotishdan himoya qilish. Masalan, kompyuterdagi axborotlarni parollar bilan himoyalash, shifrlash, brandmauerlardan foydalanish.



7) Axborotdan foydalanish:

Boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash, rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, mahsulot sifatini yaxshilash va tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish uchun qayta ishlangan ma’lumotlarni qo‘llash. Olingan axborotlar asosida qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish yoki bilim olish uchun foydalanish. Masalan, konsepktlarni o‘qish, ma’lumotlar bazasidan axborotlarni qidirish, ta’lim olish uchun Internetning axborot resurslardan foydalanish.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fani nimani o‘rganadi?
2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanining asosiy maqsadi nima?
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qaysi fan sohalari bilan bog‘liq?
4. Axborot nima?
5. Axborotning qanday turlari mavjud?
6. Eng kichik axborot o‘lchov birligi nima?
7. Tarmoqlarda axborot qanday uzatiladi?
8. Axborot texnologiyalari deganda nima tushuniladi?
9. Axborot texnologiyalariga misollar keltiring.
10. Axborot texnologiyalari qaysi sohalarda qo‘llaniladi?
11. Axborot texnologiyalarining apparat va dasturiy ta’minotiga nimalar kiradi?
12. Axborot jarayonlari nima va unga nimalar kiradi?
13. Axborotni yig‘ish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
14. Axborotni qayta ishlash deganda nimani tushunasiz?
15. Axborotni uzatish qanday vositalar orqali amalga oshiriladi?
16. Axborotni himoya qilish nima uchun kerak?
17. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati nimada?
18. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va veterinariyada qanday qo‘llaniladi?
19. Sohada Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ni qo‘llash bo‘lajak mutaxassislarga qanday afzalliklarni beradi?

20. Ishlab chiqarish sohadarida yangi texnologiyalarni qo'llashda axborot texnologiyalarining o'rnini tushuntirib bering.

Adabiyotlar

1. Aminov S.M., Muxamadiyev S.I., Rasulov S.Sh. Axborot kommunikatsion texnologiyalar fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.:ToshDAU, 2020 yil. – 248 bet.

2. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. I-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 188 b.

3. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. II-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2025. 200 b.

4. D. Watson and H. Williams Computer Science. Hodder Education, 2nd edition, 2023 year. – 404 pages.

5. G. Brown and D. Watson. Cambridge IGCSE ICT. Hodder Education, 3rd edition, 2023 year. – 571 pages.

2(2)-mavzu. Kompyuter tizimining turlari va komponentlari

Uskunaviy (Hardware) va dasturiy (software) ta'minot. Kompyuterlar turlari. Kompyuter tizimlarining asosiy komponentlari.

Kiritish qurilmalari va ulardan foydalanish. Chiqarish qurilmalari va ulardan foydalanish.

Operatsion tizimlar.

Rivojlanayotgan texnologiyalar.

Axborot tizimlari — bu axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish uchun mo'ljallangan, axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT)dan foydalangan holda kompleks tarzda tashkil etilgan tizimlardir.

Ular turli sohalarda: biznes, sog'liqni saqlash, ta'lim, davlat boshqaruvi va boshqalarda boshqaruv, qaror qabul qilish va jarayonlarni avtomatlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Axborot tizimlari kontekstida "tizim" tushunchasi quyidagilarni anglatadi:

Tizim — bu muayyan maqsadga erishish uchun o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir qiluvchi elementlarning majmuasidir.

Boshqacha qilib aytganda, tizim bir-biriga bog'liq qismlardan iborat bo'lib, ular birgalikda ma'lum bir vazifani bajaradi yoki muammoni hal qiladi. Axborot tizimlarida bu elementlar apparat ta'minoti, dasturiy ta'minot, ma'lumotlar, insonlar va proseduralar bo'lishi mumkin.

Axborot tizimi (AT) ta'rifi va maqsadi: Axborot tizimi – bu ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish uchun tashkil etilgan o'zaro bog'liq elementlar (apparat, dastur, ma'lumot, inson) majmuidir.

Uning asosiy maqsadi – foydalanuvchilarga kerakli ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'g'ri shaklda taqdim etish, shu orqali qaror qabul qilish jarayonini yaxshilash va tashkilot faoliyatini samarali boshqarish.

Kompyuter tizimlari - bu ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun mo'ljallangan o'zaro bog'liq apparat va dasturiy ta'minot komponentlarining majmuasidir.

Ular prosessor, xotira, saqlash qurilmalari, kiritish/chiqarish qurilmalari va aloqa vositalari kabi fizik qismlardan, shuningdek, operatsion tizimlar, drayverlar, dasturiy ilovalar va ma'lumotlar bazalari kabi dasturiy ta'minotlardan iborat.

Kompyuter tizimlari turli xil vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi, jumladan, ma'lumotlarni qayta ishlash, hisoblash, boshqarish, aloqa, ko'ngilocharlik va boshqalar. Ularning arxitekturasini va konfiguratsiyasini vazifalar talablariga va foydalanish sharoitlariga qarab o'zgarishi mumkin.

Kompyuter tizimining ikkita asosiy qismi - bu apparat (hardware) va dasturiy (software) ta'minotdir. Apparat ta'minoti kompyuterning fizik qismlarini o'z ichiga

oladi, masalan, prosessor, xotira, saqlash qurilmalari, kiritish/chiqarish qurilmalari va boshqalar.

Dasturiy ta'minot esa kompyuterda ishlaydigan va apparat ta'minotini boshqaradigan dasturlar, ma'lumotlar va ko'rsatmalar to'plamidir. Operasion tizimlar, ilovalar, drayverlar va boshqa dasturiy ta'minot turlari mavjud.

Apparat va dasturiy ta'minot birgalikda ishlab, kompyuterning funkSIONalligini ta'minlaydi; apparat ta'minoti dasturiy ta'minot tomonidan boshqariladi va dasturiy ta'minot apparat ta'minoti resurslaridan foydalanib o'z vazifalarini bajaradi.

Kompyuterlar turlari juda xilma-xil bo'lib, ularni quyidagi asosiy kategoriyalarga ajratish mumkin:

1) Superkompyuterlar: Eng kuchli va qimmat kompyuterlar bo'lib, murakkab hisoblashlarni talab etadigan ilmiy va muhandislik vazifalari uchun ishlatiladi. Masalan, ob-havoni prognoz qilish, yadroviy sinovlar va molekulyar modellar yaratish.

2) Meynfreymlar (Mainframes): Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash uchun mo'ljallangan. Ko'pincha banklar, sug'urta kompaniyalari va davlat idoralari kabi yirik tashkilotlar tomonidan foydalaniladi.

3) Serverlar (Servers): Tarmoqdagi boshqa kompyuterlarga xizmat ko'rsatish uchun maxsus yaratilgan. Veb-saytlarni joylashtirish, elektron pochta boshqarish va ma'lumotlar bazalarini saqlash kabi vazifalarni bajaradi.

4) Shaxsiy kompyuterlar (Personal Computers - PC): Yakka tartibdagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan. Ular stol usti (desktop) va ko'chma (laptop) turlariga bo'linadi.

5) Noutbuklar (Laptops): Ko'chma shaxsiy kompyuterlar bo'lib, qulaylik va portativlikni ta'minlaydi.

6) Planshetlar (Tablets): Sensorli ekranga ega bo'lgan ko'chma kompyuterlar. Kitob o'qish, video ko'rish va internetda ishlash uchun qulay.

7) Smartfonlar (Smartphones): Mobil telefon funksiyalarini kompyuter imkoniyatlari bilan birlashtirgan qurilmalar.

8) O'rnatilgan kompyuterlar (Embedded Systems): Maxsus vazifalarni bajarish uchun boshqa qurilmalar ichiga o'rnatilgan kompyuterlar. Masalan, avtomobillar, kir yuvish mashinalari va mikroto'lqinli pechlarda.

9) Ishchi stansiyalar (Workstations): Yuqori unumdorlikni talab qiladigan murakkab vazifalar uchun mo'ljallangan shaxsiy kompyuterlar. Grafika dizayni, video tahriri va muhandislik ishlari uchun ishlatiladi.

Bu kompyuterlarning asosiy turlari bo'lib, har biri o'z vazifalari va imkoniyatlariga ega.

Kompyuter tizimlarining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- Markaziy prosessor (CPU): Kompyuterning "miyasi" bo'lib, barcha hisoblash va mantiqiy amallarni bajaradi. U dastur ko'rsatmalarini o'qiydi va ularni bajaradi.

- Xotira (Memory): Ma'lumotlarni va dasturlarni vaqtincha saqlash uchun ishlatiladi. Asosiy xotira (RAM) va doimiy xotira (ROM) kabi turlari mavjud.

- Saqlash qurilmalari (Storage Devices): Ma'lumotlarni doimiy saqlash uchun ishlatiladi. Bunga qattiq disklar (HDD), qattiq holatdagi disklar (SSD) va flesh xotiralar kiradi.

- Kiritish qurilmalari (Input Devices): Kompyuterga ma'lumot kiritish uchun ishlatiladi. Klaviatura, sichqoncha, skaner va mikrofon kabi qurilmalar shular jumlasidandir.

- Chiqarish qurilmalari (Output Devices): Kompyuterdan ma'lumotlarni chiqarish uchun ishlatiladi. Monitor, printer, dinamiklar va proyektor kabi qurilmalar shular jumlasidandir.

- Ona plata (Motherboard): Kompyuterning barcha asosiy komponentlarini birlashtirib turadigan asosiy plata.

- Video karta (Video Card): Tasvirlarni monitorga chiqarish uchun javobgar.

- Tarmoq kartasi (Network Card): Kompyuterni tarmoqqa ulash uchun ishlatiladi.

- Elektr ta'minoti Bloki (Power Supply Unit - PSU): Kompyuterning barcha komponentlarini elektr energiyasi bilan ta'minlaydi.

- Sovutish tizimi (Cooling System): Kompyuter komponentlarini qizib ketishdan saqlaydi.

Kompyuterga ma'lumot kiritish uchun ishlatiladigan qurilmalar **kiritish qurilmalari** deb ataladi. Ular kompyuter bilan aloqa o'rnatish va unga buyruqlar berish imkonini beradi. Eng ko'p ishlatiladigan kiritish qurilmalari quyidagilar:

- Klaviatura (Keyboard): Matn, sonlar va buyruqlarni kiritish uchun ishlatiladi. Klaviatura tugmalari bosilganda, kompyuter ularni kodlarga aylantirib, ma'lumot sifatida qabul qiladi.

- Sichqoncha (Mouse): Ekrandagi kursorni boshqarish va obyektlarni tanlash uchun ishlatiladi. Sichqoncha harakati kompyuter tomonidan qabul qilinib, ekrandagi kursor harakatiga aylanadi.

- Sensorli panel (Touchpad): Noutbuklarda sichqoncha o'rniga ishlatiladigan qurilma. Barmoq harakati bilan kursorni boshqarish imkonini beradi.

- Sensorli ekran (Touchscreen): Ekranga teginish orqali ma'lumot kiritish imkonini beradi. Planshetlar, smartfonlar va ba'zi kompyuter monitorlarida qo'llaniladi.

- Skaner (Scanner): Qog'ozdagi matn yoki rasmlarni raqamli formatga o'tkazish uchun ishlatiladi. Skanerlangan ma'lumot kompyuterda saqlanishi va tahrirlanishi mumkin.

- Mikrofon (Microphone): Ovozni yozib olish va kompyuterda saqlash uchun ishlatiladi. Ovozli buyruqlar berish, onlayn muloqot qilish va audio yozuvlar yaratish uchun ishlatiladi.

- Veb-kamera (Webcam): Video tasvirlarni yozib olish va onlayn uzatish uchun ishlatiladi. Videokonferensiyalar, onlayn darslar va video yozuvlar yaratish uchun ishlatiladi.

- Joystik (Joystick): Kompyuter o'yinlarida boshqaruv uchun ishlatiladi.

- Raqamli qalam (Digital Pen): Grafik planshetlar va sensorli ekranlarda rasm chizish va yozuvlar kiritish uchun ishlatiladi.

- Barkod o'quvchi (Barcode Reader): Mahsulotlar va boshqa obyektlardagi shtrix-kodlarni o'qish uchun ishlatiladi.

Bu qurilmalar kompyuter bilan o'zaro aloqa qilish va unga ma'lumot kiritish imkonini beradi, bu esa kompyuterning funksionalligini kengaytiradi va foydalanish qulayligini oshiradi.

Kompyuterdan ma'lumotlarni foydalanuvchiga yetkazib berish uchun ishlatiladigan qurilmalar **chiqarish qurilmalari deb ataladi**. Ular kompyuter tomonidan qayta ishlangan ma'lumotlarni ko'rinadigan, eshitiladigan yoki boshqa shaklda taqdim etadi. Eng ko'p ishlatiladigan chiqarish qurilmalari quyidagilar:

Monitor (Monitor): Kompyuterdagi tasvirlarni (matn, rasm, video) ko'rsatish uchun ishlatiladi. Monitorlar LCD, LED va OLED kabi turli texnologiyalar asosida ishlashi mumkin.

Printer (Printer): Raqamli hujjatlarni qog'ozga chop etish uchun ishlatiladi. Printerlar lazerli, siyohli va matrisali kabi turlarga bo'linadi.

Dinamiklar (Speakers): Kompyuterdan chiqayotgan ovozlarni eshitish uchun ishlatiladi. Musiqa tinglash, video ko'rish va ovozli xabarlarni eshitish uchun ishlatiladi.

Quloqchinlar (Headphones): Shaxsiy ovoz tinglash uchun ishlatiladi. Dinamiklarga o'xshash funksiyalarni bajaradi, lekin faqat bitta foydalanuvchi uchun mo'ljallangan.

Proyektor (Projector): Kompyuterdagi tasvirlarni katta ekranga yoki devorga proyeksiya qilish uchun ishlatiladi. Prezentasiyalar, kino ko'rish va o'quv mashg'ulotlari uchun ishlatiladi.

Plotter (Plotter): Katta formatdagi rasmlar, chizmalar va muhandislik loyihalarini chop etish uchun ishlatiladi.

Taktil displey (Tactile Display): Ko'zi ojizlar uchun maxsus ma'lumotlarni Brayl alifbosida ko'rsatish uchun ishlatiladi.

GPS qurilmasi (GPS Device): Navigasiya va joylashuv ma'lumotlarini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

3D Printer (3D Printer): Raqamli modellar asosida uch o'lchamli obyektlarni yaratish uchun ishlatiladi.

Bu qurilmalar kompyuter tomonidan qayta ishlangan ma'lumotlarni foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim etish imkonini beradi va kompyuterning foydaliligini oshiradi.

Operasion tizim (OT) — bu kompyuterning apparat ta'minoti va dasturiy ta'minoti o'rtasidagi asosiy vositachi bo'lib, kompyuter resurslarini boshqaradi va dasturlarning ishlashini ta'minlaydi. Operasion tizimsiz kompyuter ishlamaydi.

Operasion tizimlarning asosiy vazifalari:

1) Resurslarni boshqarish: Prosessor vaqtini taqsimlash (CPU scheduling); Xotirani boshqarish (Memory management); Saqlash qurilmalarini boshqarish (Storage management); Kiritish/Chiqarish qurilmalarini boshqarish (I/O management).

2) Dasturlarni ijro etish: Dasturlarni yuklash va ijro etish; Dasturlar o'rtasidagi resurslarni taqsimlash; Dasturlarning xatolarini qayta ishlash.

3) Fayl tizimini boshqarish: Fayllarni yaratish, o'qish, yozish, o'chirish va boshqarish; Fayllarning tartibini saqlash; Fayllarning xavfsizligini ta'minlash.

4) Foydalanuvchi interfeysini ta'minlash: Foydalanuvchi bilan o'zaro aloqa qilish uchun grafik interfeys (GUI) yoki buyruq satri interfeysi (CLI) kabi vositalarni taqdim etish.

5) Xavfsizlikni ta'minlash: Foydalanuvchilarni autentifikasiya qilish; Ruxsatlarni boshqarish; Viruslar va boshqa zararli dasturlardan himoya qilish.

Mashhur operasion tizimlar:

Windows: Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan, eng ko'p ishlatiladigan operasion tizim.

macOS: Apple tomonidan ishlab chiqilgan, Apple kompyuterlari uchun mo'ljallangan.

Linux: Ochiq kodli operasion tizim, serverlar va shaxsiy kompyuterlarda keng qo'llaniladi.

Android: Google tomonidan ishlab chiqilgan, mobil qurilmalar uchun mo'ljallangan.

iOS: Apple tomonidan ishlab chiqilgan, iPhone va iPad uchun mo'ljallangan.

Operasion tizimlar kompyuterning barcha qismlarini birlashtirib, ularning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Windows 10 - Microsoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, shaxsiy kompyuterlar, planshetlar, o'rnatilgan tizimlar va IoT qurilmalari uchun mo'ljallangan operatsion tizimdir.

U Windows NT oilasiga mansub va Windows 8.1 dan keyingi versiya hisoblanadi. Windows 10 zamonaviy interfeys, xavfsizlikning kuchaytirilgan xususiyatlari, turli qurilmalar bilan moslashuvchanlik va yangi texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash kabi afzalliklarga ega. Uning asosiy vazifalari: kompyuter resurslarini boshqarish, dasturlarni ijro etish, fayl tizimini boshqarish, foydalanuvchi interfeysini ta'minlash va xavfsizlikni ta'minlashdan iborat.

Vazifalari:

Kompyuter resurslarini boshqarish: Prosessor vaqtini taqsimlash: Windows 10 prosessor vaqtini samarali taqsimlab, dasturlarning tez va unumli ishlashini ta'minlaydi.

Xotirani boshqarish: Operativ xotira (RAM) va virtual xotirani boshqarib, dasturlarning xotiraga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

Saqlash qurilmalarini boshqarish: Qattiq disklar, SSD va boshqa saqlash qurilmalarini boshqarib, ma'lumotlarni saqlash va ularga kirishni osonlashtiradi.

Kiritish/Chiqarish qurilmalarini boshqarish: Klaviatura, sichqoncha, printer va boshqa qurilmalar bilan o'zaro aloqani ta'minlaydi.

Dasturlarni ijro etish:

Dasturlarni yuklash va ijro etish: Dasturlarni xotiraga yuklab, ularning ishlashini ta'minlaydi.

Dasturlar o'rtasidagi resurslarni taqsimlash: Dasturlar o'rtasida prosessor vaqti, xotira va boshqa resurslarni taqsimlaydi.

Dasturlarning xatolarini qayta ishlash: Dasturlardagi xatolarni aniqlab, ularni qayta ishlash va tizimni barqaror saqlashga yordam beradi.

Fayl tizimini boshqarish:

Fayllarni yaratish, o'qish, yozish, o'chirish va boshqarish: Fayllar va papkalar bilan ishlash uchun qulay vositalarni taqdim etadi.

Fayllarning tartibini saqlash: Fayllarni tartibli saqlab, ularni oson topish imkonini beradi.

Fayllarning xavfsizligini ta'minlash: Fayllarni ruxsatsiz kirishdan himoya qiladi.

Foydalanuvchi interfeysini ta'minlash:

Grafik interfeys (GUI): Foydalanuvchiga qulay va intuitiv grafik interfeysni taqdim etadi.

Buyruq satri interfeysi (CLI): Buyruqlar orqali tizim bilan ishlash imkonini beradi.

Virtual yordamchi (Cortana): Ovozli buyruqlar orqali tizim bilan ishlash imkonini beradi.

Xavfsizlikni ta'minlash:

Foydalanuvchilarni autentifikasiya qilish: Foydalanuvchilarni parollar, PIN-kodlar va biometrik ma'lumotlar orqali autentifikasiya qiladi.

Ruxsatlarni boshqarish: Fayllar va resurslarga kirish huquqlarini boshqaradi.

Viruslar va boshqa zararli dasturlardan himoya qilish: Windows Defender orqali viruslar va boshqa zararli dasturlardan himoya qiladi.

Rivojlanayotgan texnologiyalar - bu yaqinda paydo bo'lgan yoki kelajakda katta ta'sir ko'rsatishi kutilayotgan yangi texnologiyalar. Ular ko'pincha tez rivojlanish, noaniqlik va potentsial buzilish xususiyatlariga ega.

Rivojlanayotgan texnologiyalarga misollar:

Sun'iy intellekt (AI): Mashinalarga inson kabi fikrlash, o'rganish va muammolarni hal qilish imkonini beruvchi texnologiyalar.

Blokcheyn: Markazlashmagan, xavfsiz va shaffof tranzaksiyalarni qayd etish uchun ishlatiladigan texnologiya.

Internet buyumlar (IoT): Internetga ulangan va ma'lumotlarni to'plash va almashish imkoniyatiga ega bo'lgan qurilmalar tarmog'i.

Katta ma'lumotlar (Big Data): Juda katta va murakkab ma'lumotlar to'plamini tahlil qilish va ulardan foydali ma'lumot olish texnologiyalari.

3D bosib chiqarish: Uch o'lchovli ob'ektlarni qatlam-qatlam yaratish texnologiyasi.

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR): Kompyuter tomonidan yaratilgan muhitda immersiv tajribalarni yaratish texnologiyalari.

Robototexnika: Avtomatik ravishda vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan robotlarni loyihalash, qurish, ishlatish va dasturlash.

Nanotexnologiya: Atom va molekulyar darajada materiallar va qurilmalarni manipulyatsiya qilish texnologiyasi.

Biotehnologiya: Tirik organizmlar yoki biologik tizimlardan foydalanib mahsulotlar ishlab chiqarish yoki texnologiyalarni ishlab chiqish.

Rivojlanayotgan texnologiyalar jamiyat, iqtisodiyot va atrof-muhitga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratishi, samaradorlikni oshirishi, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishi mumkin. Shuningdek, ular ish o'rinlarini yo'qotish, shaxsiy hayot masalalari va axloqiy dilemmalar kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Nazorat savollari:

- 1) Kompyuter tizimi nima?
- 2) Kompyuter tizimining asosiy qismlarini sanab o'ting.

- 3) Apparat ta'minoti (hardware) nima?
- 4) Dasturiy ta'minot (software) nima?
- 5) Kompyuterning asosiy apparat qismlariga nimalar kiradi?
- 6) Prosessor (CPU) nima va uning vazifasi nima?
- 7) Xotira (memory) nima va u qanday turlarga bo'linadi?
- 8) Operativ xotira (RAM) nima uchun kerak?
- 9) Doimiy xotira (ROM) nima uchun kerak?
- 10) Saqlash qurilmalariga nimalar kiradi?
- 11) Qattiq disk (HDD) nima?
- 12) Qattiq holatdagi disk (SSD) nima?
- 13) Kiritish qurilmalariga nimalar kiradi?
- 14) Chiqarish qurilmalariga nimalar kiradi?
- 15) Monitor nima va u nima uchun kerak?
- 16) Printer nima va u nima uchun kerak?
- 17) Sistema platasi (motherboard) nima?
- 18) Kompyuter korpusi (case) nima uchun kerak?
- 19) Kompyuterning qanday asosiy turlari mavjud?
- 20) Shaxsiy kompyuter (PC) nima?

Adabiyotlar

1. Aminov S.M., Muxamadiyev S.I., Rasulov S.Sh. Axborot kommunikatsion texnologiyalar fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.:ToshDAU, 2020 yil. – 248 bet.
2. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. I-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 188 b.
3. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. II-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2025. 200 b.
4. D. Watson and H. Williams Computer Science. Hodder Education, 2nd edition, 2023 year. – 404 pages.
5. G. Brown and D. Watson. Cambridge IGCSE ICT. Hodder Education, 3rd edition, 2023 year. – 571 pages.

3-mavzu. Microsoft Office dasturlari paketi va online muharrirlar

Microsoft Word matn muharriri va unda hujjatlar yaratish, tahrirlash va formatlash

Microsoft Excel elektron jadval protsessori va uning imkoniyatlari.

Power Point dasturida taqdimotlar tayyorlash

Google Docs, Microsoft Office 365 onlayn, Zoho Docs online muharriri bilan ishlash

Microsoft Office - bu Microsoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ofis ilovalari to'plami bo'lib, u turli xil vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan.

Unga matnli hujjatlar, elektron jadvallar, taqdimotlar, ma'lumotlar bazalari va elektron pochta bilan ishlash uchun ilovalar kiradi. Microsoft Office biznes, ta'lim va shaxsiy foydalanish uchun eng keng tarqalgan ofis ilovalari to'plamlaridan biridir.

Microsoft Office ilovalari paketi ko'p yillar davomida turli xil versiyalarda chiqarilgan, ularning har biri yangi xususiyatlar, yaxshilanishlar va zamonaviy interfeysga ega bo'lgan. Eng keng tarqalgan versiyalariga

Microsoft Office 2003, 2007, 2010, 2013, 2016, 2019 va Microsoft 365 kiradi.

Microsoft 365 - bu obuna asosidagi xizmat bo'lib, doimiy ravishda yangilanib turadigan eng so'nggi ilovalar va xizmatlarni taqdim etadi, shu jumladan Word, Excel, PowerPoint, Outlook va boshqalar. Har bir versiya o'ziga xos xususiyatlarga ega va turli xil ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan.

Microsoft Office ilovalari paketining asosiy ilovalari:

1) Microsoft Word 2016 – bu matnli hujjatlar yaratish, tahrirlash va formatlash uchun eng ko'p ishlatiladigan ilovalardan biri bo'lib, u foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Ushbu ilova yordamida siz matnni osonlik bilan kiritishingiz, nusxa olishingiz, joylashtirishingiz va o'chirishingiz mumkin. Shuningdek, shrift, abzas, sarlavha, jadval va rasmlarni o'zgartirish orqali hujjatga professional ko'rinish berish, sahifa maketini sozlash, sarlavha va quyi qismlarni qo'shish, hujjatlarni boshqalar bilan birgalikda tahrirlash va tayyor shablonlardan foydalanish imkoniyatiga egasiz. Word 2016 matnli hujjatlar bilan ishlash uchun qulay va ko'p funktsiyali yechimdir.

Microsoft Word 2016 – bu matnli hujjatlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan kuchli ilova bo'lib, unda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- Matn yaratish va tahrirlash: Hujjatlarni osonlik bilan yaratish, matnni kiritish, nusxa olish, joylashtirish, o'chirish va qidirish.
- Formatlash: Shrift, abzas, sarlavha, jadval va rasmlarni o'zgartirish orqali hujjatga professional ko'rinish berish.
- Uslublar: Hujjatdagi elementlarni tez va oson formatlash uchun uslublarni qo'llash.
- Sahifa maketi: Sahifa o'lchamlari, hoshiyalari va yo'nalishini sozlash.
- Sarlavha va quyi qismlar: Sahifa raqamlari, sana va vaqt kabi ma'lumotlarni qo'shish.

- Jadvallar va rasmlar: Hujjatga jadvallar, rasmlar, shakllar va diagrammalarni qo'shish va ularni formatlash.
- Hamkorlik: Hujjatlarni boshqalar bilan birgalikda tahrirlash.
- Shablonlar: Tezkor hujjat yaratish uchun tayyor shablonlardan foydalanish.
- PDF formati: Hujjatlarni PDF formatida saqlash va ulashish.
- Bosmaga tayyorlash: Hujjatni chop etish uchun tayyorlash.

Word 2016 matnli hujjatlar bilan ishlash uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi va foydalanuvchilarga professional ko'rinishdagi hujjatlarni yaratishga yordam beradi. Microsoft Wordning vazifasi: Matnli hujjatlar yaratish, tahrirlash va formatlash. Imkoniyatlari: Turli xil shriftlar, uslublar va formatlash vositalari. Rasmlar, jadvallar va diagrammalarni qo'shish imkoniyati. Grammatika va imlo xatolarini tekshirish. Hujjatlarni PDF va boshqa formatlarda saqlash. Hamkorlikda ishlash imkoniyati.

2. Microsoft Excel 2016

Microsoft Excel 2016 – bu ma'lumotlarni tahlil qilish, hisobotlar yaratish va ma'lumotlarni vizuallashtirish uchun mo'ljallangan kuchli elektron jadval ilovadir.

U foydalanuvchilarga ma'lumotlarni satr va ustunlarga joylashtirish, formulalar va funksiyalar yordamida hisoblashlar bajarish, diagrammalar va grafiklar yaratish, ma'lumotlarni filtrlash va saralash, shuningdek, ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash imkonini beradi. Excel 2016 biznes, moliya, statistika va boshqa sohalarda ma'lumotlar bilan ishlash uchun keng qo'llaniladigan muhim vosita hisoblanadi.

Microsoft Excel 2016 elektron jadvali va uning imkoniyatlari

Microsoft Excel 2016 – ma'lumotlarni tahlil qilish va taqdim etish uchun mo'ljallangan elektron jadval ilova. Uning imkoniyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ma'lumotlarni kiritish va tahrirlash: Raqamlar, matnlar va formulalarni satr va ustunlarga joylashtirish.
- Formulalar va funksiyalar: Matematik, statistik, moliyaviy va boshqa amallarni bajarish uchun formulalar va funksiyalardan foydalanish.
- Diagrammalar va grafiklar: Ma'lumotlarni vizuallashtirish uchun turli xil diagrammalar va grafiklar yaratish.
- Ma'lumotlarni filtrlash va saralash: Kerakli ma'lumotlarni topish va tartiblash.
- Jadvallar va svod jadvallar: Ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun jadvallar va svod jadvallar yaratish.
- Shartli formatlash: Ma'lumotlarni vizual tarzda ajratib ko'rsatish uchun shartli formatlashdan foydalanish.
- Hamkorlik: Hujjatlarni boshqalar bilan birgalikda tahrirlash.
- Ma'lumotlarni import va eksport qilish: Ma'lumotlarni boshqa ilovalardan import qilish va eksport qilish.
- Makroslar: Vazifalarni avtomatlashtirish uchun makroslar yaratish.

- Bosmaga tayyorlash: Jadvallarni chop etish uchun tayyorlash.

Excel 2016 ma'lumotlarni tahlil qilish, hisobotlar yaratish va qarorlar qabul qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Ilovaning asosiy vazifalari. Elektron jadvallar yaratish, ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobotlar tuzish. Xususiyatlari: Formulalar va funksiyalar yordamida hisoblashlar; Diagrammalar va grafiklar yaratish; Ma'lumotlarni filtrlash va saralash; Ma'lumotlarni import va eksport qilish.

Excel 2016 ma'lumotlarni tahlil qilish, hisobotlar yaratish va qarorlar qabul qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

3. Microsoft PowerPoint 2016 – bu taqdimotlar yaratish uchun mo'ljallangan ilova bo'lib, u foydalanuvchilarga slaydlar, matnlar, rasmlar, videolar va animasiyalar yordamida vizual taqdimotlar yaratish imkonini beradi.

Ushbu ilova yordamida siz turli xil mavzular va shablonlardan foydalanib, taqdimotlaringizni individuallashtirishingiz, slaydlar orasida o'tish effektlarini qo'shishingiz, nutq matnlarini yozishingiz va taqdimotni auditoriyaga qulay tarzda namoyish etishingiz mumkin. PowerPoint 2016 biznes, ta'lim, marketing va boshqa sohalarda ma'lumotlarni samarali taqdim etish uchun keng qo'llaniladi.

Microsoft PowerPoint 2016 taqdimot ilovasi va uning asosiy imkoniyatlari

Microsoft PowerPoint 2016 – bu professional ko'rinishdagi taqdimotlarni yaratish va namoyish etish uchun mo'ljallangan qudratli ilova. Uning asosiy imkoniyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Slaydlar yaratish va tahrirlash: Yangi slaydlar qo'shish, mavjudlarini tahrirlash, slaydlarning tartibini o'zgartirish va ularni bo'limlarga ajratish.
- Matn va obyektlarni qo'shish: Slaydlarga matn, rasmlar, shakllar, SmartArt grafikasi, diagrammalar, jadvallar, audio va video fayllarni qo'shish.
- Dizayn va shablonlar: Taqdimotga professional ko'rinish berish uchun tayyor shablonlar va mavzulardan foydalanish, shuningdek, o'z dizayningizni yaratish.
- Animasiya va o'tishlar: Slaydlar orasida o'tish effektlarini qo'shish va obyektlarga animasiya berish orqali taqdimotni yanada qiziqarli qilish.
- Nutq matnlari: Har bir slayd uchun nutq matnlarini yozish va taqdimot vaqtida ulardan foydalanish.
- Taqdimotni namoyish etish: Taqdimotni to'liq ekranda, dokladchi rejimida yoki onlayn tarzda namoyish etish.
- Hamkorlik: Taqdimot ustida boshqalar bilan birgalikda ishlash va o'zgarishlarni kuzatib borish.
- Eksport va nashr etish: Taqdimotni turli formatlarda (PDF, video, rasm) eksport qilish va uni onlayn tarzda nashr etish.
- Qo'shimcha imkoniyatlar: Makroslardan foydalanish, qo'shimcha ilovalarni o'rnatish va taqdimotni individuallashtirish.

PowerPoint 2016 taqdimotlarni yaratish va namoyish etish jarayonini osonlashtiradi va samaradorligini oshiradi.

Microsoft PowerPointning vazifasi: Taqdimotlar yaratish va namoyish etish. Xususiyatlari: Turli xil shablonlar va dizaynlar. Matn, rasm, video va audio qo'shish imkoniyati. Animasiya va o'tish effektlari. Spiker uchun eslatmalar qo'shish. Taqdimotni turli formatlarda saqlash.

Google Docs – bu veb-asoslangan matn muharriri bo'lib, u foydalanuvchilarga hujjatlarni onlayn tarzda yaratish, tahrirlash va hamkorlikda ishlash imkonini beradi.

U Microsoft Word kabi stol usti dasturlariga o'xshash funksiyalarni taklif etadi, ammo afzalligi shundaki, u internetga ulangan har qanday qurilmadan foydalanish mumkin va hujjatlar avtomatik ravishda Google Drive'da saqlanadi. Google Docs real vaqt rejimida hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa bir necha foydalanuvchiga bir vaqtning o'zida hujjat ustida ishlash imkonini beradi, shuningdek, sharhlar qo'shish va o'zgarishlarni kuzatib borish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, u turli xil shablonlar, shriftlar va formatlash imkoniyatlarini taklif etadi, shuningdek, hujjatlarni turli formatlarda (Microsoft Word, PDF va boshqalar) eksport qilish imkoniyatiga ega. Google Docs shaxsiy, ta'lim va biznes maqsadlari uchun matnli hujjatlar bilan ishlash uchun qulay va samarali vositadir.

Google Docs – bu Google tomonidan taqdim etilgan onlayn matn muharriri bo'lib, u foydalanuvchilarga veb-brauzer orqali hujjatlarni yaratish, tahrirlash va hamkorlikda ishlash imkonini beradi. Uning asosiy imkoniyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Onlayn hamkorlik: Bir necha foydalanuvchi bir vaqtning o'zida hujjat ustida ishlashi mumkin, o'zgarishlar real vaqtda aks etadi.
- Avtomatik saqlash: Hujjatlar Google Drive'da avtomatik ravishda saqlanadi, bu ma'lumotlarning yo'qolishidan himoya qiladi va ularga istalgan qurilmadan kirish imkonini beradi.
- Versiyalar tarixi: Hujjatning barcha o'zgarishlari saqlanadi, bu esa kerak bo'lganda avvalgi versiyalarga qaytish imkonini beradi.
- Sharhlar va takliflar: Hujjatga sharhlar qo'shish va takliflar berish, bu esa hamkorlik jarayonini osonlashtiradi.
- Turli formatlarni qo'llab-quvvatlash: Hujjatlarni Microsoft Word (.docx), PDF, ODT, TXT va boshqa formatlarda eksport qilish va import qilish mumkin.
- Shablonlar: Turli xil maqsadlar uchun tayyor shablonlar mavjud, bu esa hujjatlarni yaratish jarayonini tezlashtiradi.
- Formatlash imkoniyatlari: Matnni formatlash, shriftlarni o'zgartirish, sarlavhalar qo'shish, ro'yxatlar yaratish, jadvallar qo'shish va boshqa ko'plab imkoniyatlar mavjud.
- Qo'shimcha ilovalar: Google Docs'ga qo'shimcha ilovalar o'rnatish mumkin, bu esa uning funksionalligini kengaytiradi.
- Ovozli terish: Ovoz yordamida matnni terish imkoniyati mavjud.
- Oflayn rejim: Internetga ulanish mavjud bo'lmaganda ham hujjatlar bilan ishlash mumkin.

Google Docs – bu matnli hujjatlar bilan ishlash uchun qulay, samarali va hamkorlikka yo'naltirilgan vositadir.

Microsoft Office 365 onlayn – bu Microsoft kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan obuna asosidagi xizmat bo'lib, u Word, Excel, PowerPoint, Outlook, Teams va boshqa ko'plab dasturlarni o'z ichiga oladi.

Uning asosiy afzalligi shundaki, dasturlarning eng so'nggi versiyalariga doimiy ravishda kirish imkonini beradi va ularni kompyuterda o'rnatishdan tashqari, veb-brauzer orqali ham foydalanish mumkin. Office 365 onlayn foydalanuvchilarga hujjatlarni onlayn saqlash, hamkorlikda ishlash va ularga istalgan qurilmadan kirish imkonini beradi. Bundan tashqari, u elektron pochta, onlayn konferensiyalar va fayllarni saqlash kabi qo'shimcha xizmatlarni ham o'z ichiga oladi, bu esa uni shaxsiy va biznes maqsadlari uchun qulay va samarali yechimga aylantiradi.

Demak, Microsoft Office 365 onlayn – bu Microsoft kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan obuna asosidagi xizmat bo'lib, u Word, Excel, PowerPoint, Outlook, Teams va boshqa ko'plab dasturlarni o'z ichiga oladi.

U foydalanuvchilarga eng so'nggi ofis dasturlariga doimiy ravishda kirish imkonini beradi va ularni veb-brauzer orqali ham, kompyuterda o'rnatilgan holda ham ishlatish imkonini yaratadi.

Microsoft Office 365 onlaynning asosiy imkoniyatlari:

Onlayn hamkorlik: Word, Excel va PowerPoint hujjatlarini real vaqt rejimida birgalikda tahrirlash imkoniyati.

Avtomatik saqlash: Hujjatlar OneDrive'da avtomatik ravishda saqlanadi, bu ma'lumotlarni yo'qotishdan himoya qiladi va ularga istalgan qurilmadan kirish imkonini beradi.

Dasturlarning doimiy yangilanishi: Obuna davomida dasturlarning eng so'nggi versiyalariga avtomatik ravishda yangilanish.

Turli qurilmalarda foydalanish: Kompyuter, planshet va smartfonlarda ofis dasturlaridan foydalanish imkoniyati.

Elektron pochta va taqvim: Outlook orqali elektron pochta boshqarish va taqvimni rejalashtirish.

Onlayn konferensiyalar: Teams orqali onlayn uchrashuvlar va vebinarlar o'tkazish.

Fayllarni saqlash va ulashish: OneDrive orqali fayllarni saqlash, ulashish va ularga kirish huquqini boshqarish.

Xavfsizlik: Ma'lumotlarni himoya qilish uchun keng qamrovli xavfsizlik choralari.

Qo'llab-quvvatlash: Microsoft tomonidan texnik qo'llab-quvvatlash.

Integrasiya: Boshqa Microsoft xizmatlari va ilovalari bilan integrasiya.

Microsoft Office 365 onlayn – bu ofis dasturlari bilan ishlash, hamkorlik qilish va ma'lumotlarni saqlash uchun qulay va samarali yechimdir.

Zoho Docs onlayn muharriri – bu Zoho Corporation tomonidan taqdim etilgan onlayn hujjatlarni boshqarish va hamkorlikda ishlash platformasidir.

U foydalanuvchilarga matnli hujjatlar, jadvallar va taqdimotlarni yaratish, tahrirlash, saqlash va ulashish imkonini beradi. Zoho Docs Google Docs va Microsoft

Office 365 kabi boshqa onlayn ofis to'plamlariga o'xshash funksiyalarni taklif etadi, lekin o'ziga xos xususiyatlari va integrasiyalari bilan ajralib turadi.

Zoho Docs onlayn muharririning asosiy imkoniyatlari:

1) Hujjatlarni yaratish va tahrirlash: matnli hujjatlar (Zoho Writer), jadvallar (Zoho Sheet) va taqdimotlar (Zoho Show) yaratish va tahrirlash; formatlash vositalari: shriftlar, abzaslar, sarlavhalar, ro'yxatlar, jadvallar va boshqa elementlarni sozlash; tasvirlar, shakllar va grafik obyektlarni qo'shish; imlo xatolarini tekshirish va grammatik xatolarni tuzatish.

2) Onlayn hamkorlik: bir necha foydalanuvchi bir vaqtning o'zida hujjat ustida ishlashi mumkin; o'zgarishlar real vaqtda aks etadi; sharhlar qo'shish va muhokama qilish; hujjatlarni ulashish va ularga kirish huquqini sozlash (o'qish, tahrirlash, sharhlash).

3) Fayllarni boshqarish va saqlash: Hujjatlarni papkalarga joylashtirish va tartiblash; fayllarni nomlash, belgilash va qidirish; versiyalarni boshqarish: hujjatlarning avvalgi versiyalarini saqlash va ularga qaytish; fayllarni turli formatlarda eksport qilish (DOCX, PDF, ODT, XLS, PPT va boshqalar); fayllarni import qilish (Microsoft Office, OpenOffice va boshqa formatlar).

4) Integrasiya: Zoho CRM, Zoho Projects, Zoho Mail va boshqa Zoho ilovalari bilan integrasiya; Google Drive, Dropbox, OneDrive va Box kabi boshqa fayllarni saqlash xizmatlari bilan integrasiya; Zapier orqali boshqa ilovalar bilan integrasiya.

5) Xavfsizlik: ma'lumotlarni shifrlash; ikki faktorli autentifikasiya; kirish huquqini boshqarish; audit jurnali.

6) Qo'shimcha imkoniyatlar: Oflayn rejimda ishlash (Zoho Docs Sync orqali); mobil ilovalar (iOS va Android); shablonlar: turli xil maqsadlar uchun tayyor shablonlar; Zoho Writer'da ovozli terish; Zoho Sheet'da grafik va diagrammalar yaratish; Zoho Show'da animasiya va tranzitlar qo'shish.

Zoho Docs onlayn muharriri – bu hujjatlarni boshqarish va hamkorlikda ishlash uchun qulay va samarali yechim bo'lib, u ayniqsa Zoho ekotizimidan foydalanadigan kompaniyalar uchun foydalidir.

Nazorat savollari:

Microsoft Office dasturlari paketi va onlayn muharrirlar:

1. Microsoft Office dasturlari paketiga qaysi dasturlar kiradi?
2. Microsoft Word nima uchun ishlatiladi?
3. Microsoft Excel nima va uning asosiy vazifasi nima?
4. PowerPoint dasturining asosiy maqsadi nima?
5. Onlayn muharrirlarning afzalliklari nimada?

Microsoft Word matn muharriri:

6. Word dasturida yangi hujjat qanday yaratiladi?
7. Word dasturida matnni qanday formatlash mumkin?
8. Word dasturida jadvallar qanday yaratiladi?
9. Word dasturida rasmlarni qanday qo'shish mumkin?
10. Word dasturida hujjatni qanday saqlash mumkin?

Microsoft Excel elektron jadval prosessori:

11. Excel dasturida formulalar qanday yoziladi?

12. Excel dasturida diagrammalar qanday yaratiladi?
13. Excel dasturida ma'lumotlarni qanday saralash mumkin?
14. Excel dasturida filtrlash nima uchun ishlatiladi?
15. Excel dasturida funksiyalar nima va ular qanday ishlaydi?

PowerPoint dasturida taqdimotlar tayyorlash:

16. PowerPoint dasturida slaydlar qanday qo'shiladi?
17. PowerPoint dasturida animasiyalar qanday qo'shiladi?
18. PowerPoint dasturida tranzitlar nima?
19. PowerPoint dasturida taqdimotni qanday namoyish etish mumkin?
20. PowerPoint dasturida slaydlarga ovoz qanday qo'shiladi?

Google Docs, Microsoft Office 365 onlayn, Zoho Docs onlayn muharrirlari:

21. Google Docs nima va uning Word'dan farqi nimada?
22. Microsoft Office 365 onlaynning afzalliklari nimada?
23. Zoho Docs onlayn muharririning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

24. Ushbu onlayn muharrirlarda hamkorlikda ishlash qanday amalga oshiriladi?

25. Onlayn muharrirlarda hujjatlarni saqlash qanday ishlaydi?

Adabiyotlar

1. Aminov S.M., Muxamadiyev S.I., Rasulov S.Sh. Axborot kommunikatsion texnologiyalar fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.:ToshDAU, 2020 yil. – 248 bet.

2. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. I-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 188 b.

3. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. II-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2025. 200 b.

4. D. Watson and H. Williams Computer Science. Hodder Education, 2nd edition, 2023 year. – 404 pages.

5. G. Brown and D. Watson. Cambridge IGCSE ICT. Hodder Education, 3rd edition, 2023 year. – 571 pages.

4(3)-mavzu. Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari

Ma'lumotlar bazasi va uning turlari.

Ma'lumotlar bazasini arxitekturasini.

Ma'lumotlar bazasini klassifikatsiyasi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari.

Microsoft Access ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT).

Ma'lumotlar tiplari bilan ishlash usullari.

Microsoft Accessning asosiy ob'ektlari.

Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlash texnologiyalari

Ma'lumotlar bazasi (MB) – bu ma'lum bir struktura bo'yicha tashkil etilgan, saqlanadigan va boshqariladigan o'zaro bog'liq ma'lumotlar to'plamidir.

U ma'lumotlarni samarali saqlash, qidirish, o'zgartirish va o'chirish imkonini beradi. Ma'lumotlar bazalari turli xil sohalarda, jumladan biznes, ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat boshqaruvida keng qo'llaniladi.

Ma'lumotlar bazasining asosiy xususiyatlari:

Tartiblilik: Ma'lumotlar ma'lum bir struktura bo'yicha tashkil etiladi (masalan, jadvallar, yozuvlar, maydonlar).

O'zaro bog'liqlik: Ma'lumotlar o'rtasida aloqalar mavjud bo'lishi mumkin (masalan, bir jadvaldagi ma'lumot boshqa jadvaldagi ma'lumotga bog'langan bo'lishi mumkin).

Saqlash: Ma'lumotlar doimiy saqlash qurilmasida (masalan, qattiq disk, SSD) saqlanadi.

Boshqarish: Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) ma'lumotlarni boshqarish uchun ishlatiladi.

Xavfsizlik: Ma'lumotlar bazasiga kirish huquqini boshqarish va ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlari mavjud.

Ma'lumotlar bazasining turlari:

Ma'lumotlar bazalari turli xil mezonlar bo'yicha tasniflanishi mumkin. Eng keng tarqalgan tasniflash usullaridan biri – bu ma'lumotlar modeliga asoslangan tasniflashdir.

1) Relyasion ma'lumotlar bazasi: eng keng tarqalgan tur; ma'lumotlar jadvallarda saqlanadi; jadvallar qatorlar (yozuvlar) va ustunlardan (maydonlar) iborat; jadvallar o'rtasida aloqalar o'rnatish mumkin (masalan, bir jadvaldagi tashqi kalit boshqa jadvaldagi asosiy kalitga ishora qilishi mumkin); SQL (Structured Query Language) relyasion ma'lumotlar bazalari bilan ishlash uchun standart til hisoblanadi.

Misollar: MySQL, PostgreSQL, Oracle, Microsoft SQL Server.

2) Norelyasion (NoSQL) ma'lumotlar bazasi: relyasion modelga asoslanmagan ma'lumotlar bazalari; katta hajmdagi, strukturalanmagan yoki yarim strukturalangan

ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash uchun mo'ljallangan; turli xil ma'lumotlar modellarini qo'llab-quvvatlaydi (masalan, hujjatli, kalit-qiymat, grafali, ustunli); relyasion ma'lumotlar bazalariga nisbatan yuqori masshtablashuvchanlik va tezlikni ta'minlaydi.

Misollar: MongoDB (hujjatli), Redis (kalit-qiymat), Neo4j (grafali), Cassandra (ustunli).

3) Obyektga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasi: obyektga yo'naltirilgan dasturlash prinsiplariga asoslangan ma'lumotlar bazasi; Ma'lumotlar obyektlar sifatida saqlanadi; obyektlar atributlar (maydonlar) va metodlarga (funksiyalar) ega bo'lishi mumkin;

Misollar: ObjectDB, db4o.

4) Grafali ma'lumotlar bazasi: ma'lumotlar grafa shaklida saqlanadi; graf tugunlar (obyektlar) va qirralardan (aloqalar) iborat; Aloqalarni tahlil qilish va murakkab savollarni yechish uchun qulay.

Misollar: Neo4j, Amazon Neptune.

5) Hujjatli ma'lumotlar bazasi: ma'lumotlar hujjatlar shaklida saqlanadi (masalan, JSON, XML); hujjatlar iyerarxik strukturaga ega bo'lishi mumkin; yarim strukturalangan ma'lumotlarni saqlash uchun qulay.

Misollar: MongoDB, Couchbase.

6) Kalit-qiymatli ma'lumotlar bazasi: ma'lumotlar kalit-qiymat juftliklari shaklida saqlanadi; oddiy va tezkor ma'lumotlarni saqlash va qidirish uchun mo'ljallangan.

Misollar: Redis, Memcached.

Ma'lumotlar bazasini tanlash. Ma'lumotlar bazasini tanlash ko'p omillarga bog'liq, jumladan: ma'lumotlarning hajmi va strukturasi; ma'lumotlarni qayta ishlash tezligiga talablar; masshtablashuvchanlik talablari; xavfsizlik talablari; qo'llab-quvvatlash va boshqaruv xarajatlari.

Ma'lumotlar bazasining arxitekturasini deganda, ma'lumotlar bazasi tizimining komponentlari, ularning o'zaro munosabatlari va tizimning umumiy tuzilishi tushuniladi.

Bu tushuncha ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va ularga kirish usullarini, shuningdek, ma'lumotlar bazasining xavfsizligi, ishonchliligi va masshtablashuvchanlik kabi muhim jihatlarni qamrab oladi. Arxitektura ma'lumotlar bazasining umumiy ishlashiga va samaradorligiga ta'sir qiladi, shuning uchun uni loyihalashtirishda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak.

Ma'lumotlar bazasining arxitekturasini – bu ma'lumotlar bazasi tizimining tuzilishi, uning asosiy komponentlari, ularning o'zaro aloqalari va tizimning umumiy ishlash prinsiplarini belgilab beruvchi konseptual va fizik loyihadir. U

ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, boshqarish va himoya qilish usullarini aniqlaydi.

Arxitekturaning asosiy jihatlari:

1) Komponentlar: Ma'lumotlar bazasi tizimi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Yadro (Database Engine): Ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va boshqarish uchun mas'ul bo'lgan asosiy qism.

Metama'lumotlar katalogi (Data Dictionary): Ma'lumotlar bazasining strukturasi, jadvallar, maydonlar, aloqalar va boshqa obyektlar haqidagi ma'lumotlarni saqlaydi.

So'rovlarni qayta ishlash moduli (Query Processor): SQL so'rovlarini tahlil qiladi, optimallashtiradi va bajaradi.

Tranzaksiyalarni boshqarish moduli (Transaction Manager): Ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlash uchun tranzaksiyalarni boshqaradi.

Saqlashni boshqarish moduli (Storage Manager): Ma'lumotlarni diskda saqlash va ularga kirishni boshqaradi.

Xavfsizlikni boshqarish moduli (Security Manager): Ma'lumotlar bazasiga kirish huquqini boshqaradi va ma'lumotlarni himoya qiladi.

2) Ma'lumotlar modeli: Ma'lumotlarning qanday tashkil etilishi va saqlanishini belgilaydi (masalan, relyasion, obyektga yo'naltirilgan, NoSQL).

3) Ma'lumotlar sxemasi: Ma'lumotlar bazasining logik strukturasi aniqlaydi, jadvallar, maydonlar, aloqalar va cheklovlarni belgilaydi.

4) So'rov tili: Ma'lumotlar bazasi bilan o'zaro aloqa qilish uchun ishlatiladigan til (masalan, SQL).

5) Interfeyslar: Foydalanuvchilar va boshqa arizalar ma'lumotlar bazasiga qanday kirishini belgilaydi (masalan, API, ODBC, JDBC).

6) Masshtablashuvchanlik va ishonchlilik: Ma'lumotlar bazasining yuklamani qanday ko'tara olishi va uzilishlarga qanday chidamli ekanligini belgilaydi.

7) Xavfsizlik: Ma'lumotlarni ruxsatsiz kirishdan, o'zgartirishdan va o'chirishdan himoya qilish mexanizmlari.

Arxitekturaning ahamiyati:

Samaradorlik: To'g'ri arxitektura ma'lumotlarni tez va samarali qayta ishlash imkonini beradi.

Masshtablashuvchanlik: Arxitektura ma'lumotlar bazasining o'sishiga va yuklamaning oshishiga moslashishini ta'minlaydi.

Ishonchlilik: Arxitektura ma'lumotlarning yaxlitligini va ularning uzoq muddatli saqlanishini ta'minlaydi.

Xavfsizlik: Arxitektura ma'lumotlarni himoya qilish va kirish huquqini boshqarish imkonini beradi.

Boshqaruv: To'g'ri arxitektura ma'lumotlar bazasini boshqarish va texnik xizmat ko'rsatishni osonlashtiradi.

Ma'lumotlar bazasining arxitekturasini loyihalashtirishda biznes talablari, ma'lumotlarning xususiyatlari, yuklamaning prognozi va mavjud resurslarni hisobga olish kerak.

Ma'lumotlar bazasining klassifikatsiyasi deganda, ma'lumotlar bazalarini ularning xususiyatlari, tuzilishi, qo'llanish sohalari va boshqa mezonlarga ko'ra guruhlariga ajratish tushuniladi. Bu klassifikatsiya ma'lumotlar bazasini tanlash, loyihalashtirish va boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumotlar bazalarini klassifikatsiya qilish ularning xususiyatlari, tuzilishi, qo'llanish sohalari va boshqa mezonlarga ko'ra turli guruhlariga ajratish jarayonidir. Bu klassifikatsiya ma'lumotlar bazasini tanlash, loyihalashtirish va boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ma'lumotlar bazalarining asosiy klassifikatsiyalari batafsil keltirilgan:

1) Ma'lumotlar modeliga ko'ra: Relyasion ma'lumotlar bazalari (Relational Databases): ma'lumotlar jadvallarda saqlanadi; jadvallar o'rtasidagi aloqalar kalitlar orqali o'rnatiladi; SQL (Structured Query Language) so'rov tilidan foydalaniladi.

Misollar: MySQL, PostgreSQL, Oracle, Microsoft SQL Server.

Obyektga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazalari (Object-Oriented Databases): ma'lumotlar obyektlar ko'rinishida saqlanadi; obyektlar sinflar va merosxo'rlik prinsiplari asosida tashkil etiladi;

Misollar: GemStone, ObjectDB.

Obyekt-relyasion ma'lumotlar bazalari (Object-Relational Databases): relyasion va obyektga yo'naltirilgan yondashuvlarni birlashtiradi; relyasion jadvallarda obyektlarni saqlash imkonini beradi.

Misollar: Oracle, PostgreSQL.

NoSQL ma'lumotlar bazalari (NoSQL Databases): relyasion modelga asoslanmagan ma'lumotlar bazalari; katta hajmdagi, strukturalanmagan yoki yarim strukturalangan ma'lumotlarni saqlash uchun mo'ljallangan; Turli xil ma'lumotlar modellarini qo'llab-quvvatlaydi (masalan, kalit-qiymat, hujjatli, grafali).

Misollar: MongoDB, Cassandra, Redis, Neo4j.

2) Ma'lumotlarni saqlash usuliga ko'ra: markazlashgan ma'lumotlar bazalari (Centralized Databases). ma'lumotlar bitta markaziy serverda saqlanadi. Foydalanuvchilar markaziy serverga ulanib ma'lumotlarga kirishadi.

Taqsimlangan ma'lumotlar bazalari (Distributed Databases): ma'lumotlar bir nechta kompyuterlarda saqlanadi; ma'lumotlar turli joylarda joylashgan bo'lishi mumkin; ma'lumotlarga kirish tarmoq orqali amalga oshiriladi

Bulutli ma'lumotlar bazalari (Cloud Databases): bulutli platformalarda joylashgan ma'lumotlar bazalari; keng ko'lamlilik, egiluvchanlik va tezkorlikni ta'minlaydi;

Misollar: Amazon RDS, Google Cloud SQL, Azure SQL Database.

3) Qo'llanish sohasiga ko'ra: operasion ma'lumotlar bazalari (Operational Databases): Real vaqt rejimida tranzaksiyalarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan. Misollar: Bank tizimlari, elektron tijorat platformalari.

Ma'lumotlar omborlari (Data Warehouses): analitik so'rovlar va hisobotlar uchun mo'ljallangan; turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtiradi; Misollar: Teradata, Amazon Redshift.

Ma'lumotlar ko'llari (Data Lakes): har qanday formatdagi ma'lumotlarni saqlash uchun mo'ljallangan; strukturalanmagan, yarim strukturalangan va strukturalangan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Misollar: Hadoop, Amazon S3.

4) Foydalanuvchilar soniga ko'ra: Bir foydalanuvchi ma'lumotlar bazalari (Single-User Databases): Faqat bir foydalanuvchi tomonidan ishlatiladi. Misollar: Microsoft Access.

Ko'p foydalanuvchi ma'lumotlar bazalari (Multi-User Databases):

Bir nechta foydalanuvchi tomonidan bir vaqtda ishlatiladi.

Misollar: Oracle, MySQL.

5) Ma'lumotlarning o'zgaruvchanligiga ko'ra: statik ma'lumotlar bazalari (Static Databases): Ma'lumotlar kam o'zgaradi. Misollar: Arxiv ma'lumotlari. Dinamik ma'lumotlar bazalari (Dynamic Databases): Ma'lumotlar tez-tez o'zgarib turadi. Misollar: Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn do'konlar.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT) – bu ma'lumotlar bazasini yaratish, boshqarish, unga kirish va undan foydalanishni osonlashtiradigan dasturiy ta'minotdir. U ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish va ularga kirish huquqini boshqarish kabi asosiy funksiyalarni bajaradi.

MBBT ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlaydi, ularga samarali kirishni ta'minlaydi va arizalar uchun ma'lumotlar bilan ishlashning qulay interfeysini yaratadi.

Microsoft Access - bu ma'lumotlar bazasini yaratish va boshqarish uchun qulay vosita bo'lib, unda turli xil ma'lumotlar turlari bilan ishlash imkoniyati mavjud. Ma'lumotlar turlari ma'lumotlar bazasida saqlanadigan ma'lumotlarning turini belgilaydi va ular bilan ishlash usullarini aniqlaydi.

Microsoft Access 2016 – bu Microsoft Office dasturiy ta'minot to'plamiga kiruvchi, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) bo'lib, u

ma'lumotlarni yaratish, boshqarish va tahlil qilish uchun qulay va samarali vositalarni taqdim etadi. U kichik va o'rta biznes, shuningdek, shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan.

1. Microsoft Access 2016 ning asosiy xususiyatlari va imkoniyatlari

Qulay interfeys: Lentaga asoslangan interfeys (Ribbon interface) funksiyalarni oson topish va ishlatish imkonini beradi. Obyektlar paneli (Navigation Pane) ma'lumotlar bazasi obyektlarini (jadvallar, so'rovlar, formalar, hisobotlar) oson boshqarish imkonini beradi.

Jadvallar (Tables): ma'lumotlarni saqlash uchun asosiy obyekt; Turli xil ma'lumotlar turlarini qo'llab-quvvatlaydi (matn, son, sana, vaqt, pul, va h.k.); Maydonlarning xususiyatlarini sozlash imkoniyati (o'lcham, format, validasiya qoidalari).

So'rovlar (Queries): Ma'lumotlarni saralash, filtrlash va birlashtirish uchun ishlatiladi. SQL (Structured Query Language) so'rov tilini qo'llab-quvvatlaydi. Turli xil so'rov turlari: tanlash, yangilash, o'chirish, qo'shish.

Formalar (Forms): Ma'lumotlarni kiritish va tahrirlash uchun qulay interfeys yaratish imkonini beradi. Turli xil boshqaruv elementlarini qo'llab-quvvatlaydi (matn maydonlari, ro'yxatlar, tugmalar, va h.k.). Formalarni sozlash va dizaynlash imkoniyati.

Hisobotlar (Reports): Ma'lumotlarni chop etish yoki tahlil qilish uchun qulay formatda taqdim etish imkonini beradi. Turli xil guruhlash, saralash va jamlash funksiyalarini qo'llab-quvvatlaydi. Hisobotlarni sozlash va dizaynlash imkoniyati.

Makroslar (Macros): Avtomatlashtirilgan vazifalarni yaratish uchun ishlatiladi. Turli xil amallarni ketma-ket bajarish imkoniyati. Voqyealarga asoslangan makroslarni yaratish imkoniyati (masalan, tugmani bosish, formani ochish).

VBA (Visual Basic for Applications): Murakkab vazifalarni bajarish uchun dasturlash tili. Foydalanuvchi funksiyalarini yaratish, ma'lumotlar bazasining funktsionalligini kengaytirish imkoniyati.

2) Yangi xususiyatlar va takomillashtirishlar (Access 2016):

Yangi shablonlar (New Templates): Turli xil sohalar uchun tayyor shablonlar (masalan, loyihalarni boshqarish, inventarizasiya, talabalarni boshqarish). Shablonlar ma'lumotlar bazasini tez va oson yaratish imkonini beradi.

Veb-ma'lumotlar bazalari (Web Databases): SharePoint platformasida veb-ma'lumotlar bazalarini yaratish va ulashish imkoniyati. Veb-brauzer orqali ma'lumotlarga kirish va ularni tahrirlash imkoniyati.

Boshqa ma'lumotlar manbalariga ulanish (Linking to External Data): Turli xil ma'lumotlar manbalariga ulanish imkoniyati (masalan, Excel, SQL Server, Oracle). Ma'lumotlarni import qilish yoki ularga bevosita ulanish imkoniyati.

Yaxshilangan so'rovlar dizayneri (Improved Query Designer): So'rovlarni yaratish va tahrirlash uchun qulay va vizual interfeys. Turli xil shartlar va funksiyalarni qo'llash imkoniyati.

Yangi diagramma turlari (New Chart Types): Ma'lumotlarni vizual taqdim etish uchun yangi diagramma turlari (masalan, daraxtsimon diagramma, quyosh nurlari diagrammasi). Diagrammalarni sozlash va dizaynlash imkoniyati.

3) Imkoniyatlar:

Ma'lumotlarni boshqarish: ma'lumotlarni saqlash, tahrirlash va o'chirish; ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlash; ma'lumotlarga kirish huquqini boshqarish.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: So'rovlar yordamida ma'lumotlarni saralash, filtrlash va guruhlash; Hisobotlar yordamida ma'lumotlarni jamlash va taqdim etish; Diagrammalar yordamida ma'lumotlarni vizual tahlil qilish.

Avtomatlashtirish: Makroslar yordamida vazifalarni avtomatlashtirish; VBA yordamida murakkab ssenariylarni amalga oshirish.

Integrasiya: Microsoft Office dasturlari bilan integrasiya (Excel, Word, Outlook); SharePoint platformasi bilan ishlash

Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlash texnologiyalari deganda, juda katta, tez o'zgarib turadigan va turli xil formatdagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va ulardan foydali ma'lumotlar olish uchun ishlatiladigan maxsus dasturiy ta'minotlar, uskunalar va usullar majmui tushuniladi.

Bu texnologiyalar yordamida kompaniyalar o'z bizneslarini yaxshilash, mijozlarning ehtiyojlarini qondirish va raqobatda ustunlikka erishish uchun muhim qarorlarni qabul qilishlari mumkin.

Big Data (Katta ma'lumotlar) - bu har kuni ko'plab manbalardan yaratiladigan, tarkiblangan va tarkiblanmagan ma'lumotlarning ulkan hajmlarini anglatuvchi atama bo'lib, foydali ma'lumotlarni olish uchun maxsus texnologiyalar va qayta ishlash usullarini talab qiladi. Ushbu texnologiyalar katta ma'lumotlar to'plamlarini an'anaviy usullarga qaraganda tezroq va samaraliroq tahlil qilish, yashirin qonuniyatlarni, tendensiyalarni va o'zaro bog'liqliklarni aniqlash imkonini beradi, bu esa tashkilotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, biznes jarayonlarini optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Big Dataning asosiy xususiyatlariga hajm (Volume), ma'lumotlarning kirish tezligi (Velocity), ma'lumotlar formatlarining xilma-xilligi (Variety), ma'lumotlarning ishonchliligi (Veracity) va ulardan olinadigan insaytlarning qiymati (Value) kiradi.

Big Data (Katta ma'lumotlar) - bu an'anaviy tahlil usullari bilan samarali qayta ishlab bo'lmaydigan, tarkiblangan va tarkiblanmagan ma'lumotlarning ulkan hajmlarini anglatuvchi atama.

Big Data "uch V" deb nomlangan uchta asosiy jihat bilan tavsiflanadi: Hajm (ma'lumotlar hajmi), Tezlik (ularning kelish va qayta ishlash tezligi) va Xilma-xillik (formatlarning xilma-xilligi).

Ushbu ma'lumotlar Hadoop, Spark va NoSQL ma'lumotlar bazalari kabi saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish uchun maxsus texnologiyalar va vositalarni talab qiladi.

Katta ma'lumotlarni tahlil qilishning maqsadi yashirin qonuniyatlarni, tendensiyalarni va o'zaro bog'liqliklarni aniqlashdan iborat bo'lib, bu tashkilotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, biznes jarayonlarini optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Big Data ning asosiy xususiyatlari "uch V" deb nomlangan uchta muhim jihatni o'z ichiga oladi:

1) Hajm (Volume): Ma'lumotlar bazasini boshqarishning an'anaviy tizimlari imkoniyatlaridan oshib ketadigan katta hajmdagi ma'lumotlar.

2) Tezlik (Velocity): Ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning yuqori tezligi.

3) Xilma-xillik (Variety): Tarkibiy, yarim tarkibiy va notarkibiy shakllarni (matnlar, tasvirlar, audio, video) o'z ichiga olgan turli xil ma'lumotlar turlari.

Bundan tashqari, ko'pincha qo'shimcha xususiyatlar qo'shiladi:

4) Ishonchlilik (Veracity): Qabul qilinayotgan qarorlar sifatiga ta'sir etuvchi ma'lumotlarning ishonchliligi va aniqligi.

5) Qiymat (Value): Ma'lumotlar massivlaridan muhim ma'lumotlar va foydali insaytlarni olish imkoniyati.

Ushbu xususiyatlar katta ma'lumotlarni samarali boshqarish uchun murakkablikni va ixtisoslashtirilgan yondashuvlar va texnologiyalar zaruratini belgilaydi.

Big Data ni qayta ishlash uchun qanday texnologiyalar qo'llaniladi?

Big Data ni qayta ishlash uchun bir qator texnologiyalar va vositalar qo'llaniladi, ularning har biri muayyan vazifalarni hal qiladi. Quyida eng mashhurlaridan ba'zilari keltirilgan:

Ma'lumotlarni taqsimlangan holda qayta ishlash platformalari:

Hadoop: Katta hajmdagi ma'lumotlarni taqsimlangan holda saqlash va qayta ishlash uchun vositalarni o'z ichiga olgan ochiq ekotizim. U HDFS (taqsimlangan fayl tizimi), MapReduce (ma'lumotlarni parallel qayta ishlash algoritmi) va YARN (resurslar menejeri) ni o'z ichiga oladi.

Spark: Tezkor xotirada ma'lumotlarni tez qayta ishlashni ta'minlaydigan taqsimlangan hisoblash muhiti, oqimli qayta ishlashni, SQL-so'rovlarni, mashina o'qitishni va grafik hisoblashni qo'llab-quvvatlaydi.

Ma'lumotlar bazalari va omborlari: NoSQL ma'lumotlar bazalari: MongoDB (hujjatga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasi), Cassandra (ustunli ma'lumotlar bazasi), Neo4j (grafik ma'lumotlar bazasi) kabi katta hajmdagi turli xil ma'lumotlarni saqlashga mo'ljallangan.

Ustunli ma'lumotlar bazalari: Masalan, Vertica, ClickHouse, jadvallarning ustunlari bo'yicha so'rovlarni optimallashtirish orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni tez tahlil qilish uchun mo'ljallangan.

Ma'lumotlarni oqimli qayta ishlash:

Kafka: Katta ma'lumotlar oqimlarini real vaqtda uzatish imkonini beruvchi oqimli kiritish-chiqarish tizimi.

Flink, Storm: Kiruvchi voqyealarni deyarli bir zumda tahlil qilish imkonini beruvchi ma'lumotlarni oqimli qayta ishlash vositalari.

Analitik vositalar va kutubxonalar:

Pandas: Ma'lumotlarni tahlil qilish va manipulyasiya qilish uchun Python kutubxonasi, ayniqsa murakkab algoritmlarni qo'llashdan oldin dastlabki qayta ishlash uchun foydali.

Dask: Pandas va NumPy bilan mos keluvchi parallel hisoblashlar uchun kengaytiriladigan freymvork.

Apache Arrow: Xotirada katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali uzatish va qayta ishlash uchun standartlashtirilgan ma'lumotlar formati.

Mashinaviy o'qitish va sun'iy intellekt:

TensorFlow, PyTorch: Katta hajmdagi ma'lumotlarda mashina o'qitish modellarini qurish uchun ishlatiladigan chuqur o'qitish freymvorklari.

Scikit-Learn: Klassifikasiya, regressiya va klasterlash usullarining keng doirasini qo'llab-quvvatlovchi klassik mashina o'qitish uchun mashhur Python kutubxonasi.

Bulutli xizmatlar:

Amazon Web Services (AWS): Amazon Redshift, Amazon Kinesis, AWS Lambda kabi katta ma'lumotlarni qayta ishlash uchun kengaytiriladigan bulutli yechimlarni taklif etadi.

Google Cloud Platform (GCP): Tezkor tahlil va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun Google BigQuery, Google Dataproc, Google Pub/Sub ni taqdim etadi.

Microsoft Azure: Katta ma'lumotlarni tahlil qilish va ilovalarni ishlab chiqish uchun Azure HDInsight, Azure Databricks, Azure Synapse Analytics ni qo'llab-quvvatlaydi.

Har bir texnologiya o'z qo'llanilish sohasiga ega va katta ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish yoki vizualizasiya qilish kabi turli xil vazifalar uchun mos keladi.

Adabiyotlar

1. Aminov S.M., Muxamadiyev S.I., Rasulov S.Sh. Axborot kommunikatsion texnologiyalar fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.:ToshDAU, 2020 yil. – 248 bet.

2. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. I-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 188 b.

3. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. II-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2025. 200 b.

4. D. Watson and H. Williams Computer Science. Hodder Education, 2nd edition, 2023 year. – 404 pages.

5. G. Brown and D. Watson. Cambridge IGCSE ICT. Hodder Education, 3rd edition, 2023 year. – 571 pages.

5(4)-mavzu. Sohada korrelyatsion-regression modellarni qo'llash

Asosiy tushunchalar

Juft va ko'p omilli regression tahlillar

Regressiya tenglamasini tuzishda eng kichik kvadratlar usuli

Regressiya tenglamasining ahamiyatliligini va parametrlarini baholash


Ishlab chiqarish funksiyalari

Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi

Chorvachilik masalalarida korrelyatsion-regression tahlilning qo'llanilishi

Korrelyatsion va regression tahlil o'zgaruvchi (omil)lar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi.

Korrelyatsiya – bu ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasini aniqlaydigan statistik o'lchovdir. U bir o'zgaruvchining o'zgarishi boshqasining o'zgarishiga qanchalik ta'sir qilishini ko'rsatadi. Korrelyatsion tahlil ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi aloqa darajasi va yo'nalishini aniqlaydi, ularning qanchalik va qanday o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.



Omillarning o'zaro bog'liqligi – bu omillardan birining o'zgarishi boshqasining o'zgarishiga qanday ta'sir qilishini ifodalaydi. Bu qaysi omillar bir – biriga qanday ta'sir qilishini va bu aloqalardan prognoz qilish yoki qaror qabul qilish uchun qanday foydalanish mumkinligini tushunish uchun muhimdir.

Korrelyatsiya tushunchasi. Korrelyatsiya – bu ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchi va yo'nalishini tavsiflovchi statistik o'lchovdir.

U bir o'zgaruvchidagi o'zgarishlar boshqasidagi o'zgarishlar bilan qanchalik bog'liqligini ko'rsatadi: mutanosib ravishda o'sib yoki pasayib boradi (musbat korrelyatsiya) yoki biri oshganda ikkinchisi kamayadi (salbiy korrelyatsiya).

Korrelyatsiya koeffitsienti -1 dan $+1$ gacha qiymatlarni qabul qiladi: $+1$ ga yaqin qiymat kuchli musbat aloqani, -1 ga yaqin qiymat kuchli salbiy aloqani va 0 ga yaqin qiymat esa aniq aloqa yo'qligini ko'rsatadi.

Korrelyatsiyaning maqsadi ikki o'zgaruvchi (omil) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasi aniqlashdan iborat, u bir o'zgaruvchining o'zgarishi boshqa o'zgaruvchining o'zgarishi bilan qanchalik bog'liqligini ko'rsatadi.

Masalan, qishloq xo'jaligida ishlatilgan o'g'it miqdori va hosildorlik o'rtasida musbat korrelyatsiya kuzatilishi mumkin – qancha ko'p o'g'it ishlatilsa, hosil shuncha yuqori bo'ladi, bunday aloqa faqat ularning birgalikdagi o'zgarishini ko'rsatadi, biri ikkinchisini bevosita keltirib chiqarish sabablarini isbotlamaydi. Korrelyatsiya sonli koeffitsient bilan o'lchanadi va o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqa qanchalik kuchli

ekanligini va u qaysi yo‘nalishda (musbat yoki manfiy) kechayotganini aniqlashga yordam beradi.

Omil – bu statistik tahlilda, jumladan korrelyatsion tahlilda boshqa ko‘rsatkichning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi o‘zgaruvchi miqdordir.

Masalan, qishloq xo‘jaligida don ekinlarining hosildorligi ko‘plab omillarga bog‘liq: yog‘ingarchilik miqdori, havo harorati, tuproq sifati, o‘g‘itlar darajasi va boshqa shart – sharoitlar. Agar biz solingan o‘g‘it miqdori va bug‘doy hosili o‘rtasida to‘g‘ridan – to‘g‘ri aloqani kuzatsak, u holda o‘g‘itlar hosildorlik bilan ijobiy korrelyatsiyalangan omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘g‘itlash me‘yorlariga rioya qilish sharti bilan qancha ko‘p o‘g‘it ishlatilsa, hosilning oshishi ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Korrelyatsiya tushunchasida omilli bog‘liqlik ikkita o‘zgaruvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni anglatadi, bunda bir o‘zgaruvchining o‘zgarishi boshqasining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Koeffitsient 1 yoki -1 ga qanchalik yaqin bo‘lsa, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik shunchalik kuchli bo‘ladi.


Omilli bog‘liqlik tahlili o‘rganilayotgan ob’ekt yoki hodisaga ta’sir etuvchi asosiy o‘zgaruvchilarni aniqlashga yordam beradi. Bu esa qishloq xo‘jaligi, sanoat va boshqa sohalarda jarayonlarni optimallashtirish va qarorlar qabul qilish uchun muhimdir.

Korrelyatsion bog‘liqlik – bu ikki belgining muvofiqlashgan o‘zgarishi bo‘lib, bir belgining o‘zgaruvchanligi boshqasining o‘zgaruvchanligiga mos kelishini aks ettiradi.

Korrelyatsion bog‘liqliklar shakli, yo‘nalishi va darajasi (kuchi) bilan farqlanadi. Bog‘liqlik shakliga ko‘ra, korrelyatsion bog‘liqlik to‘g‘ri chiziqli yoki egri chiziqli bo‘lishi mumkin. Masalan, omuxta yem iste’moli va sog‘in sigirning sut mahsuldorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘ri chiziqli bog‘liqlik bo‘ladi. Bug‘doy hosili va yog‘ingarchilik miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlik esa egri chiziqli bog‘liqlik bo‘ladi. Yog‘ingarchilik oshganda bug‘doy hosildorligini oshishiga ijobiy ta’sir qiladi, ammo yog‘ingarchilikning butun dehqonchilik mavsumida oshib borishi bug‘doy hosildorligini pasayishiga olib keladi.

Yo‘nalishiga ko‘ra, korrelyatsion bog‘liqlik musbat (to‘g‘ri) va manfiy (teskari) bo‘lishi mumkin. Musbat to‘g‘ri chiziqli korrelyatsiyada bir belgining katta qiymatlari boshqa belgining katta qiymatlariga mos keladi, bir belgining past qiymatlari esa boshqa belgining past qiymatlariga mos keladi. Manfiy korrelyatsiyada nisbatlar teskari bo‘ladi. Musbat korrelyatsiyada - korrelyatsiya koeffitsienti musbat ishoraga (masalan, $r_{xy} = 0,3$), manfiy korrelyatsiyada esa manfiy ishoraga ega bo‘ladi (masalan, $r_{xy} = - 0,3$).

Korrelyatsion bog‘liqlikning darajasi, kuchi yoki zichligi korrelyatsiya koeffitsientining kattaligi bilan aniqlanadi.




Bog‘liqlik kuchi uning yo‘nalishiga bog‘liq emas va korrelyatsiya koeffitsientining absolyut qiymati bilan aniqlanadi. Korrelyatsiya koeffitsientining mumkin bo‘lgan maksimal absolyut qiymati $r_{xu} = 1$; minimal qiymati $r_{xu} = 0$ bo‘ladi.

Korrelyatsion bog‘liqliklarning umumiy klassifikatsiyasini ko‘rib chiqamiz:

- Kuchli yoki zich bog‘liqlik, korrelyatsiya koeffitsienti $|r_{xy}| > 0,70$ bo‘lganda;
- O‘rtacha bog‘liqlik, $0,50 < |r_{xy}| < 0,69$ bo‘lganda;
- Mo‘tadil bog‘liqlik, $0,30 < |r_{xy}| < 0,49$ bo‘lganda;
- Zaif bog‘liqlik, $0,20 < |r_{xy}| < 0,29$ bo‘lganda;
- Juda zaif bog‘liqlik, $|r_{xu}| < 0,19$ bo‘lganda.

Korrelyatsiya atamasi fanga 1886 yilda ingliz olimi F. Galton tomonidan kiritilgan. Pirson korrelyatsiya koeffitsientini Karl Pirson tomonidan 1896 yilda taqdim etilgan.

Pirson korrelyatsiya koeffitsienti yoki Pirsonning r koeffitsienti ikkita uzluksiz o‘zgaruvchi o‘rtasidagi chiziqli bog‘liqlikning kuchi va yo‘nalishini aniqlaydi. U -1 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda o‘zgaradi. Bu koeffitsient tarqalish diagrammasidagi ma’lumotlar nuqtalarining to‘g‘ri chiziq bilan qanchalik yaqin ekanligini ko‘rsatadi.



- 1 qiymati mukammal musbat chiziqli bog‘liqlikni anglatadi, ya’ni bir o‘zgaruvchi oshganda, boshqasi ham doimiy ravishda oshadi.

- - 1 qiymati mukammal manfiy chiziqli bog‘liqlikni ko‘rsatadi, bunda bir o‘zgaruvchi oshganda, boshqasi kamayadi.

- 0 qiymati chiziqli korrelyatsiya mavjud emasligini bildiradi. Bu o‘zgaruvchilar o‘zaro chiziqli bog‘liqlikka ega emasligini anglatadi.

Pirson koeffitsienti odatda X va Y simvollar bilan belgilanadigan belgilar o‘rtasidagi faqat chiziqli bog‘liqlikning mavjudligini tavsiflaydi. Korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash formulasi shunday tuzilganki, agar belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlik chiziqli xususiyatga ega bo‘lsa, Pirson koeffitsienti bu bog‘liqlikning zichligini aniq belgilaydi. Shuning uchun u Pirsonning chiziqli korrelyatsiya koeffitsienti deb ham ataladi.

Pirsonning chiziqli korrelyatsiya koeffitsientining qiymati +1 dan oshmasligi va - 1 dan kam bo‘lmasligi kerak. Bu ikki +1 va - 1 sonlari korrelyatsiya koeffitsienti uchun chegaralardir. Agar hisoblashda +1 dan katta yoki - 1 dan kichik qiymat olinsa, hisoblashda xatolik yuz bergan bo‘ladi.

Omillar	Kuzatuvlar:				
Y – bog‘liq o‘zgaruvchilar (omillar)	y_1	y_2	y_3		y_n
X – bog‘liqmas o‘zgaruvchilar (omillar)	x_1	x_2	x_3		x_n

Bu erda n – kuzatuvlar soni.

Pirson korrelyatsiya koeffitsienti quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$r_{xy} = \frac{n \sum_{i=1}^n x_i y_i - \sum_{i=1}^n x_i \sum_{i=1}^n y_i}{\sqrt{\left(n \sum_{i=1}^n x_i^2 - \left(\sum_{i=1}^n x_i \right)^2 \right) \left(n \sum_{i=1}^n y_i^2 - \left(\sum_{i=1}^n y_i \right)^2 \right)}}$$


Bu

yerda: r_{xy} – korrelyatsiya koeffitsienti; x – omil, qiymatlari; y – natijaviy omil qiymatlari, n – kuzatuvlar soni. $\sum$ – yig‘indi belgisi.

Kuzatuvlar	x_i	y_i	$x_i y_i$	$(x_i)^2$	$(y_i)^2$
1	x_1	y_1	$x_1 y_1$	$(x_1)^2$	$(y_1)^2$
2	x_2	y_2	$x_2 y_2$	$(x_2)^2$	$(y_2)^2$
3	x_3	y_3	$x_3 y_3$	$(x_3)^2$	$(y_3)^2$
...	...	...	...	...	...
n	x_n	y_n	$x_n y_n$	$(x_n)^2$	$(y_n)^2$
$i=1,2,3,..., n$	$\sum_{i=1}^n x_i$	$\sum_{i=1}^n y_i$	$\sum_{i=1}^n x_i y_i$	$\sum_{i=1}^n x_i^2$	$\left(\sum_{i=1}^n y_i \right)^2$

Regressiya tushunchasi.

Regressiya – bu bir bog‘liq o‘zgaruvchining bir yoki bir nechta bog‘liqmas o‘zgaruvchilar bilan aloqasi (bog‘liqligi)ni modellashtirish va o‘rganish uchun ishlatiladigan statistik usul bo‘lib, miqdoriy aloqalarni aniqlash va prognoz qilish uchun tenglamalar tuzish imkonini beradi.



Regressiya doirasida bog‘liqmas o‘zgaruvchilar qiymatlarining o‘zgarishi bog‘liq o‘zgaruvchining qiymatiga qanday ta’sir qilishini tasvirllovchi funktsiya aniqlanadi, bu esa omillarni tahlil qilish va ularning o‘zaro ta’sirini aniqlash uchun ayniqsa muhimdir. Bu usul nafaqat mavjud qonuniyatlarni tushuntirishga yordam beradi, balki istiqbol ko‘rsatkichlarni ham bashorat qiladi, bu esa iqtisodiyot, tibbiyot, muhandislik va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda qaror qabul qilish va rejalashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Statistikada "regressiya" so‘zi – bir o‘zgaruvchining boshqa o‘zgaruvchiga bog‘liqligini aniqlash va bu bog‘liqlikdan istiqboldagi qiymatlarni prognoz qilish yoki tadqiq qilinayotgan o‘zgaruvchining mohiyatini tushunish uchun foydalanishni anglatadi. Masalan, qishloq xo‘jaligida regressiya o‘g‘it miqdorining o‘zgarishi hosilga qanday ta’sir qilishini aniqlashga va shu model asosida o‘g‘it solishning berilgan sharoitlarida kutilayotgan hosilni bashorat qilishga imkon beradi. Demak, regressiya omillarning miqdoriy ta’sirini aniqlashga va olingan modeldan rejalashtirish va qaror qabul qilish uchun foydalanishga yordam beradi.


Regression tahlil – bu bir o‘zgaruvchining qiymatini boshqa bir yoki bir nechta o‘zgaruvchilarga bog‘liqligini o‘rganish va miqdoriy baholash imkonini beradigan statistik usuldir.

Uning asosiy maqsadi – bir omilning qiymatini boshqa bir yoki bir nechta omillar asosida bashorat qilishdan iborat. Usulning asosida omillar o‘zaro bog‘liqligini tasvirllovchi matematik modelni qurish yotadi.

Regression tahlilda omil – bu bog‘liq o‘zgaruvchiga (natijaga) ta’sir qiluvchi o‘zgaruvchidir.

Masalan, qishloq xo‘jaligida omil sifatida solingan o‘g‘it miqdori, havo harorati yoki tuproq namligi bo‘lishi mumkin, bog‘liq o‘zgaruvchi esa ekinning hosildorligi bo‘ladi. Omilning natija bilan aloqasi qanchalik kuchli bo‘lsa, bu omilning qiymati o‘zgarganda hosilni aniq prognoz qilish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi. Omillar, shuningdek, turli texnologik ko‘rsatkichlar (urug‘ navlari, sug‘orish jadalligi),

iqtisodiy omillar (yoqilg'i narxi, ishchilarning ish haqi) yoki tabiiy sharoitlar (quyoshli kunlar, yog'ingarchilik) bo'lishi mumkin.



Regressiya tushunchasidagi omilli aloqa – bu bir yoki bir nechta mustaqil omillar va bog'liq o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlik bo'lib, u omillarning o'zgarishi natijaga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi; masalan, qishloq xo'jaligida omilli aloqa hosildorlikning o'g'it darajasi va yog'ingarchilik miqdoriga bog'liqligi bo'lishi mumkin, bunda o'g'it va yog'ingarchilik miqdorining oshishi hosilning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Bu aloqa har bir omilning o'zgarishi bilan hosil qanchalik o'zgarishini miqdoriy aniqlashga imkon beradi, bu esa qishloq xo'jaligi tadbirlarini rejalashtirish va hosildorlikni yaxshilash bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.


Regression tahlil – bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqani o'rganishga imkon beruvchi statistik usul. Regression tahlilning asosiy maqsadi – bog'liq o'zgaruvchining qiymatini boshqa bir yoki bir nechta bog'liqmas o'zgaruvchilar asosida bashorat qilishdan ibora. Shu bilan birga, regression tahlil bu o'zgaruvchilarning qanchalik o'xaro bog'langanini va ulardan biri boshqasiga qanday ta'sir qilishini aniqlashga yordam beradi.

Regression tahlil asosida matematik model qurish yotadi, u bog'liqmas o'zgaruvchilarning o'zgarishi bog'liq o'zgaruvchining o'zgarishiga qanday olib kelishini tasvirlaydi. Regressiyaning eng mashhur omalashgan chiziqli regressiyadir, u o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni chiziqli funksiya bilan tasvirlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, regression tahlil murakkabroq o'zaro aloqalar uchun mos bo'lgan ko'plab boshqa usullarni o'z ichiga oladi, masalan, logistik regressiya va polinomial regressiyalarni.

Regression tahlil usullari

Qishloq xo'jaligida ekinlar hosildorligi, o'g'itlar samaradorligi, chorva mollari mahsuldorligi va boshqa ko'rsatkichlarni tahlil qilish va bashoratlash uchun turli ko'rinishdagi regressiya tenglamalaridan foydalaniladi. Quyida qishloq xo'jaligi uchun regressiya tenglamalarining eng keng tarqalgan turlari keltirilgan:

Chiziqli regressiya. Regressiyaning eng oddiy turi bo'lib, u bog'liq o'zgaruvchi (masalan, ekin hosildorligi) va bir yoki bir nechta bog'liqmas o'zgaruvchilar (masalan, yog'ingarchilik miqdori, o'g'itlash darajasi, harorat) o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.



Eng kichik kvadratlar usuli

Regression tahlil – bu bir yoki bir nechta erkin o‘zgaruvchilar va bog‘liq o‘zgaruvchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni modellashtirish uchun ishlatiladigan statistik usul, bo‘lib uning maqsadi - bu bog‘liqlikni eng yaxshi tasvirlaydigan matematik modelni topishdan iborat. Regression tahlilning asosiy usullaridan biri model parametrlarini baholash uchun qo‘llaniladigan eng kichik kvadratlar usuli (EKKU) hisoblanadi.

Eng kichik kvadratlar usuli – bu bog‘liq o‘zgaruvchi va bir yoki bir nechta bog‘liqmas o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi eng yaxshi muvofiqlikni topish uchun qo‘llaniladigan regression tahlilga statistik yondashuv bo‘lib, kuzatilgan qiymatlar va model tomonidan bashorat qilingan qiymatlar o‘rtasidagi chetlanishlar (qoldiqlar) kvadratlari yig‘indisini minimallashtirish orqali amalga oshiriladi.

Usulning mohiyati model parametrlarini (masalan, chiziqli regressiya koeffitsientlarini) shunday tanlashdan iborat bo‘lib, unda haqiqiy ma’lumotlar va regressiya tenglamasi bo‘yicha hisoblangan qiymatlar o‘rtasidagi farqlar kvadratlarining yig‘indisi minimal bo‘ladi.

Bunga har bir parametr bo‘yicha ushbu yig‘indining differentsiallanishidan olingan tenglamalar tizimini yechish va hosilalarni nolga tenglashtirish orqali erishiladi, bu chiziqli regressiya holatida normal tenglamalar yoki matritsali usullar orqali analitik yechimga olib keladi.

EKKU xatolar tasodifiy, nol matematik kutilishga va doimiy dispersiyaga ega deb taxmin qiladi, shuningdek statistik xulosalar uchun xatolarning normal taqsimoti taxminida tez-tez ishlatiladi.

$$\begin{cases} na_0 + a_1 \sum x = \sum y; \\ a_0 \sum x + a_1 \sum x^2 = \sum xy. \end{cases}$$

Usul o‘z soddaligi, talqin qilish osonligi va ma’lumotlardagi chiziqli bog‘liqliklarni samarali tasvirlash qobiliyati tufayli keng qo‘llaniladi.

Omillar quyidagicha chiziqli bog‘langan bo‘lsin: $Y=ax+b$

$$a = \frac{n(\sum xy) - (\sum x)(\sum y)}{n(\sum x^2) - (\sum x)^2}, \quad b = \frac{(\sum y) - a(\sum x)}{n}$$

Bu yerda:

- n – kuzatuvlar soni,
- $\sum xy$ – har bir x va y qiymatlari juftligining ko‘paytmalari yig‘indisi,
- $\sum x$ – barcha x qiymatlarining yig‘indisi,
- $\sum y$ – barcha y qiymatlarining yig‘indisi,

- $\sum x^2 - x$ qiymatlari kvadratlarining yig'indisi.

Eng kichik kvadratlar usuli algoritmi:

1-qadam: Bog'liqmas o'zgaruvchining qiymatlarini x_i , bog'liq o'zgaruvchining qiymatlarini y_i deb belgilanadi.

2-qadam: x_i va y_i ning o'rtacha qiymatlarini X va Y lar bilan belgilanadi.

3-qadam: Eng yaxshi approksimatsiya tenglamasi $y = ax + b$ ko'rinishda bo'ladi deb faraz qilamiz, bu yerda a – to'g'ri chiziqlarning og'masi, b esa to'g'ri chiziqlarning Y o'qi bilan kesishish nuqtasi.

4-qadam: a ning qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: $a = [\sum (X - x_i) \times (Y - y_i)] / \sum (X - x_i)^2$.

5-qadam: Kesishish nuqtasi b ning qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: $b = Y - aX$.

a koeffitsienti og'ish koeffitsienti deb ataladi, chunki u regressiya to'g'ri chizig'ining og'ish burchagini aniqlaydi. a ning absolyut qiymati qanchalik katta bo'lsa, chiziq shunchalik tik bo'ladi. Agar $a > 0$ bo'lsa, chiziq chapdan o'ngga qarab o'sadi, agar $a < 0$ bo'lsa, chiziq pastga qarab kamayadi. Bu koeffitsient bog'liqmas o'zgaruvchi (x)ning o'zgarishi bog'liq o'zgaruvchi (y)ga qanday ta'sir qilishini aniq ko'rsatadi.

Misol. Ikki omilli chiziqli regressiya tenglamasi: $Y = a + b_1x_1 + b_2x_2$,

bu yerda: Y – bug'doy hosildorligi (kg/ga), x_1 – berilgan azotli o'g'itlar miqdori (kg/ga), x_2 – samarali haroratlar yig'indisi (gradus – kun), a, b_1, b_2 – koeffitsientlar modeli.


Ko'p omilli chiziqli regressiya – bu bog'liq o'zgaruvchi va bir nechta bog'liqmas omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishga imkon beruvchi statistik usul. U asosan, bog'liqmas o'zgaruvchilar soni ikki va undan ortiq bo'lganda qo'llaniladi.

$$Y = a + b_1x_1 + b_2x_2 + \dots + b_nx_n.$$

Masalan, chorva mollarini kunlik ozuqa ratsioni, yem – xashak tarkibidagi ozuqa birligi, hazmlanadigan protein va karotin kabi omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Ko'p omilli regressiya barcha bog'liqmas o'zgaruvchilarning bog'liq o'zgaruvchiga


ta'sirini bir vaqtda hisobga olishga imkon beradi.

Polynomial regressiya. Erkli va erksiz o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanish chiziqli bo'lmaganda ishlatiladi. Bu o'g'itlashning optimal dozalar yoki o'simliklarning o'sish harorati kabi egri chiziqli bog'liqliklarni hisobga olish imkonini beradi. Misol.



Kvadratlik polinomial regressiya: $Y=a+b_1x+b_2x^2$, bu yerda: Y – pomidor mevasining oʻrtacha ogʻirligi (g), x – tuproqdagi azot konsentratsiyasi (%), a, b_1, b_2 – model koeffitsientlari.


Logarifmik regressiya. Omillar taʼsirining samarasi omilning qiymati oshishi bilan sekinlashganda qoʻllaniladi. Masalan, oʻgʻitlar oz miqdorda solinganda hosilning oʻsishi ancha ortadi, keyinchalik meʼyor oshirilganda esa asta – sekin kamayadi. Misol: Logarifmik regressiya tenglamasi: $Y=a+b/\ln(x)$. bu yerda: Y – sigir sut mahsuldorligi (litr/sutka), x – ozuqa



qoʻshimchalarining sutkalik dozasi (g/kg tana vazniga), a, b – model koeffitsientlari.

Koʻrsatkichli regressiya. Koʻrsatkichning oʻsishi boshqa parametr darajasiga eksponensial bogʻliq boʻlgan holatlar uchun mos keladi. Koʻpincha zararkunandalar yoki bakteriyalar populyatsiyasining tez boshlangʻich oʻsishini tavsiflash uchun ishlatiladi.


Eksponensial regressiya: $Y=a \cdot e^{bx}$. Bu yerda Y – bogʻliq oʻzgaruvchi (koʻpincha oʻsish yoki pasayish bilan bogʻliq); x – mustaqil oʻzgaruvchi (masalan, vaqt, investitsiya gorizonti yoki boshqa uzluksiz omil); a va b – baholanishi kerak boʻlgan parametrlar. Masalan, Y – oʻsimlikdagi zararkunanda hasharotlar soni, x – vegetatsiya davrining kunlari, a, b model koeffitsientlari boʻlishi mumkin.



Koʻrsatkichli regressiya tenglamasi quyidagi koʻrinishga ega: $Y = ab^x$. Bu yerda: Y – bogʻliq oʻzgaruvchi (natija); x – bogʻliqmas oʻzgaruvchi (omil); a va b – x va y oʻrtasidagi bogʻliqlikni tavsiflovchi model parametrlari.

Darajali regressiya chiziqli boʻlmagan regressiya turi boʻlib, uning tenglamasi $Y = aX^b$ koʻrinishda boʻladi, bu yerda: Y – natijaviy koʻrsatkich, X – bogʻliqmas oʻzgaruvchi; a, b – regressiya koeffitsientlari boʻlib, X va Y orasidagi bogʻlanishni tavsiflaydi.

Bogʻliq oʻzgaruvchining oʻzgarishi bogʻliqmas oʻzgaruvchining oʻzgarish darajasiga proporsional boʻlganda darajali bogʻliqliklardan foydalaniladi. Bunday modellar koʻpincha urugʻlarni ekish zichligining hosildorlikka taʼsirini baholash uchun qoʻllaniladi. Masalan, regressiyani $Y=aX^b$ darajali tenglamasida: Y – kartoshkaning



yalpi mahsuloti (s/ga), X – tuganaklarning ekish zichligi (ming/ga), a, b – model koeffitsientlari bo‘lishi mumkin.

Kobba – Duglas ishlab chiqarish funksiyasi – bu ishlab chiqarish hajmining ikkita asosiy omilga: mehnat va kapitalga bog‘liqligini tasvirlovchi matematik modeldir.

U 1928 yilda iqtisodchilar Charlz Kobba va Pol Duglas tomonidan taklif qilingan va shundan beri iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda.


$$Y(L, K) = AL^\beta K^\alpha$$

$\alpha + \beta = 1$

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan ishlab chiqarish

– bu

sotish uchun mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun texnologiyalar va resurslarni qo‘llash jarayoni. Demak, bu xaridorlar uchun muayyan foydalilikka ega bo‘lgan tovar va xizmatni yaratish jarayonidir. Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish bo‘yicha har qanday faoliyat alohida shaxslarning yoki butun jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatdir.



To‘lovga qobiliyatli talabning tovarlarga bo‘lgan taklifga nisbati tovar yoki xizmat narxini belgilaydi. Taklifning yoki ishlab chiqarish hajmining va tovarlar qiymatining miqdoriy tavsifi ishlab chiqarish funksiyasidir. Ishlab chiqarish jarayoni butun jamiyatning farovonligiga bevosita ta’sir qiladi: individual va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish darajasi va aholining umumiy sonida o‘rta sinfning ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, milliy farovonlik va taraqqiyot darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ishlab chiqarish funksiyasining vazifasi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida jamiyat farovonligining o‘rishini tushuntirishdan iborat. Bu modellar natural yoki qiymat ifodasidagi ishlab chiqarish hajmi, sarflangan resurs hajmi (ishlab chiqarish omillari) kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish funksiyalarining ikki turi mavjud:

- birinchidan, ishlab chiqarish hajmining bir omilga bog‘liqligini belgilovchi bir omilli funksiyalar. Bu turkumga chiziqli, parabolik, darajali va ko‘rsatkichli funksiyalar kiradi;

• ikkinchidan, ishlab chiqarish hajmining ikki omil nisbatiga bog‘liqligini belgilovchi ikki omilli funksiyalar. Bu turkumga Kobba – Duglas, Leontev, Solou, Allen funksiyalari kiradi.

Bu modellar natural yoki qiymat ifodasidagi ishlab chiqarish hajmi, sarflangan resurs hajmi (ishlab chiqarish omillari) kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

Kobba – Duglas ishlab chiqarish funksiyasining eng muhim ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish omillarining elastiklik ko‘rsatkichlaridir, ular boshqa teng sharoitlarda ularning nisbatining o‘zgarishining ishlab chiqarishning fizik hajmiga ta’sirini aks ettiradi.


Kobba – Duglas ishlab chiqarish funksiyasi – ishlab chiqarish hajmining (Y) ikkita asosiy ishlab chiqarish omiliga: mehnat (L) va kapitalga (K) bog‘liqligini tasvirlovchi keng qo‘llaniladigan iqtisodiy model. U – biror bir tovar ishlab chiqarishning kapital va mehnat nisbatiga bog‘liqligini aks ettiradi.

Kobba – Duglas modeli ikkita asosiy resursni hisobga oladi: mehnat (ishchi kuchi), ya’ni tovarlar yoki xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadigan xodimlar va kapital, ya’ni ishlab chiqarish vositalari, masalan, uskunalar, mashinalar, binolar, asboblari va biznesda foydalaniladigan boshqa moddiy aktivlar. Aynan shu ikki resursning o‘zaro ta’siri ishlab chiqarish hajmini belgilaydi va eng katta foyda olish uchun ularni qanday to‘g‘ri taqsimlashni tushunishga imkon beradi.

Kobba – Duglas modeli, masalan, chorvachilik sohasida uchta asosiy omilni o‘z ichiga olishi mumkin: ozuqa (chorva hayvonlari uchun yem – xashak resurslari), xodimlar (chorvachilik fermer xo‘jaligi ishchilari) va jihozlar (fermer xo‘jaligi binolari, uskunalar, infratuzilmalar). Bu omillar chorvachilik fermer xo‘jaligida minimal xarajatlar bilan maksimal foydani ta’minlaydigan kombinatsiyalarni baholashga imkon beradi.

Kobba – Duglas modelining **maqsadi** – turli ishlab chiqarish omillarining (masalan, mehnat va kapital) yakuniy mahsulot yoki xizmat yaratishga qo‘shgan hissasini miqdoriy baholashga imkon beradi, bu esa biznesga resurslarni samarali rejalashtirish va ishlab chiqarishni boshqarishga yordam beradi.

Model foydani maksimallashtirish, unumdorlikni oshirish va o‘sishning potensial zaxiralarini aniqlash uchun resurslarning optimal kombinatsiyalarini aniqlashga yordam beradi, korxonalar va butun sanoat iqtisodiyotida tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun vositani taqdim etadi.



Kobba – Duglas modelining samaradorligini hisoblash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1) Ishlab chiqarishning haqiqiy darajasini aniqlash: Ma’lum davrda ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmatning real hajmi o‘lchanadi.

2) Ishlab chiqarish omillarining ta’sirini baholash: Resurslar (kapital, mehnat) haqidagi mavjud ma’lumotlardan foydalaniladi va har bir omil bo‘yicha ishlab chiqarish elastikligini aks ettiruvchi tegishli koeffitsientlar (α , β) aniqlanadi.

3) Ishlab chiqarishning potensial darajasini hisoblash: Nazariy jihatdan mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish hajmi quyidagi formula yordamida hisoblanadi: $Y_{\text{pot}} = AK^{\alpha}L^{(1-\alpha)}$. A – ishlab chiqarishning umumiy samaradorlik darajasini aks ettiruvchi texnologik koeffitsient; K – kapital miqdori (mashinalar, inshootlar); L – ishchi xodimlar soni.

4) Samaradorlikni tahlil qilish. Samaradorlik koeffitsienti – bu xarajatlarning daromadga nisbatiga teng bo‘lgan va foizlarda ifodalangan ko‘rsatkich. Samaradorlik mahsulotning haqiqiy chiqishini potensial bilan solishtirish orqali baholanadi: Agar koeffitsient 1 ga yaqin bo‘lsa, demak xo‘jalik samarali ishlayapti, agar ancha kichik bo‘lsa, ishlab chiqarish jarayonini yaxshilash uchun imkoniyatlar mavjud deb qaraladi.

Qishloq xo‘jaligida korrelyasion tahlil hosildorlik va mahsulot sifatiga ta’sir etuvchi turli omillar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash va miqdoriy baholash uchun qo‘llaniladi.

Masalan, solingan o‘g‘it miqdori va olingan bug‘doy hosili o‘rtasidagi aloqani o‘rganib, o‘g‘it dozasini oshirish hosildorlikning o‘sishiga qanchalik yordam berishini aniqlash mumkin. Xuddi shunga o‘xshab, tahlil yog‘ingarchilik miqdori va sabzavot ekinlarining o‘sishi yoki tuproq harorati va qishloq xo‘jaligi o‘simliklarining rivojlanishi o‘rtasidagi korrelyasiyani ko‘rsatishi mumkin. Bunday tadqiqotlar agrotexnika optimallashtirishga, resurslardan oqilona foydalanishga, hosilni bashorat qilishga va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi va barqarorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

7.1-masala. Paxta hosildorligi (s/ga)ning mineral (s/ga) va organik (t/ga) o‘g‘itlash miqdori bilan korrelyatsion bog‘lanish koeffitsientlarini aniqlash.

Bajarish usuli:

1) Fermer xo‘jaliklari bo‘yicha paxta hosildorligi (Y)ning mineral o‘g‘itlash miqdori (x_1)ga bog‘liqlik korrelyatsiyasini hisoblaymiz.

Korrelyatsiya koeffitsientlarini hisoblashda Excel ilovasini **Korrel** funksiyasidan foydalanamiz.

7.1 – jadval.

Paxtachilik klasteri fermer xo‘jaliklari bo‘yicha: hosildorlik (s/ga), ekin maydonlarni mineral (s/ga) va organik (t/ga) o‘g‘itlash bo‘yicha ko‘rsatkichlari.

Fermer xo'jaliklari tartib raqami	Paxta hosildorligi, s/ga	Mineral o'g'it miqdori, s/ga	Organik o'g'it miqdori, t/ga
№	Y(Natija)	x_1 (1 – omil)	x_2 (2 – omil)
1	45	3,9	12,4
2	48	4,3	14
3	46	3,6	12,4
4	46	3,8	14,6
5	44	3,9	12,2
6	43	3,4	12,5
7	49	4,4	14,4
8	38	3,6	10
9	41	3,3	13
10	44	3,8	12
11	47	4,2	14
12	48	4,3	16
13	44	3,9	14
14	42	3,8	13
15	43	3,6	10

1 – qadam. Excel ilovasida berilgan jadvalni tuzamiz (7.1 – rasm.) va undan korrelyatsiya koeffitsienti yoziladigan katakni belgilaymiz (masalan, E17 ni).

2 – qadam. Excelni formula qatoridagi “**Vstavka funksii** – Funksiyani qo'yish” tugmasini bosamiz. Natijada shu nomdagi muloqot oynasi ochiladi.

3 – qadam. **Vstavka funksii** oynasini **Kategorii** darchasida taqdim qilinadigan ro'yxatdan **Statisticheskiiye** kategoriyasini ajratamiz.


4 – qadam. **Viberite funktsiyu** (Funksiyani tanlang) darchasidagi funtsiyalar ro'yxatidan **KORREL** funksiyasini belgilaymiz.

5 – qadam. **Vstavka funksii** oynasidan OK tugmasi bosiladi. Natijada oynada **Argumenty funksii** (Funksiya argumentlari) paneli ochiladi.

6 – qadam. **Argumenty funksii** (Funksiya argumentlari) muloqot oynasi **Massiv1** va **Massiv2** nomli ikkita darcha bilan ochiladi (7.2 – rasm). **Massiv1** darchasiga B3:B17 diapazondagi fermer xo'jaliklari bo'yicha paxta hosildorligi (Y)ning sonli ma'lumotlari kiritiladi. Buning uchun **Massiv1** maydoni faollashtiriladi va sichqoncha ko'rsatkichi bilan B3:B17 diapazoni belgilanadi (ya'ni, sichqoncha ko'rsatkichi ko'rsatilgan diapazon ustida yurgiziladi). Shu tartibda **Massiv2** maydoniga C3:C17 diapazonidagi paxta maydonlarini o'g'itlash (X) bo'yicha sonli

ma'lumotlari kiritilib, OK tugmasi bosiladi. Natijada hisoblangan korrelyatsiya koeffitsienti E17 katakda yoziladi (7.3 – rasm).

Eslatma. Excel ilovasida tuzilgan jadvaldagi formulalarni ko'rish uchun **Formuly** vkladkasidan **Pokazat formuly** buyrug'i beriladi. Natijada ilovadagi




7.1-rasm.

jadval ko'rinishi 7.4 – rasmdagi ko'rinishni oladi. Buyruqni takroran berilishi jadvalni dastlabki ko'rinishiga o'tkazadi.

Xulosa.

1) Hisoblangan korrelyatsiya koeffitsienti $r_{xy} = 0,7875 \approx 0,79$ ga teng (7.3 – rasm).

Bu



7.3-rasm.

koeffitsient fermer xo'jaliklari bo'yicha paxta hosildorligining mineral o'g'itlar bilan bog'liqlik kuchi (aloqasi)ni ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilganidek, korrelyatsiya koeffitsienti $|r_{xy}| > 0,70$ bo'lganda kuchli yoki zich bog'liqlik mavjud bo'ladi. Bu paxta maydonlarini mineral o'g'itlash miqdorini oshirib borish paxta hosildorligini oshiradi, deb xulosa qilishga asos bo'ladi.

2) Fermer xo'jaliklari bo'yicha paxta hosildorligi (Y)ning organik o'g'itlash miqdori (x_2)ga bog'liqlik korrelyatsiyasini hisoblaymiz (7.5 – rasm). Hisoblashlar yuqoridagi kabi Excelning E13 katagi va B3:B17, D3:D17 diapazonlari uchun bajariladi. Hisoblangan korrelyatsion bog'lanish koeffitsienti $r_{xy} \approx 0,67$ ga teng. Korrelyatsiya koeffitsienti $0,50 < |r_{xy}| < 0,69$ oralig'ida bo'lganda omillar o'rtasida “o'rtacha” bog'liqlik mavjud bo'ladi.

Bu $r_{xy} \approx 0,67$ koeffitsiyent fermer xo'jaliklari bo'yicha paxta hosildorligining organik o'g'itlar bilan bog'liqlik kuchi “o'rtacha” ekanligini ko'rsatadi.

Chorvachilikda korrelyasion tahlil hayvonlarning mahsuldorligi va salomatligiga ta'sir etuvchi turli omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasini aniqlash va baholash uchun keng qo'llaniladi.

Masalan, omuxta em iste'moli va qoramolning sut mahsuldorligi o'rtasidagi

14	12	48	4,3	16	
15	13	44	3,9	14	
16	14	42	3,8	13	
17	15	43	3,6	10	=KORPEЛ(B3:B17;C3:C17)
18	O'rtacha	=CP3HAЧ(B3:B17)	=CP3HAЧ(C3:C17)	=CP3HAЧ(D3:D17)	

7.4-rasm. Excel jadvalidan fragment.

The screenshot shows an Excel spreadsheet with the following data table:

Fermer bo'jaliklari tartibi	Paxta hosildorligi, s/ga	Mineral o'g'it miqdori, x_1	Organik o'g'it miqdori, x_2
1	45	3,9	12,4
2	48	4,3	14
3	46	3,6	12,4
4	46	3,8	14,6
5	44	3,9	12,2
6	43	3,4	12,5
7	49	4,4	14,4
8	38	3,6	10
9	41	3,3	14
10	44	3,8	12
11	47	4,2	14
12	48	4,3	16
13	44	3,9	14
14	42	3,8	13
15	43	3,6	10
O'rtacha	44,5	3,9	13,0

The KORPEЛ function dialog box is open, showing the arguments: Massiya1 (B3:B17) and Massiya2 (D3:D17). The result is 0,66944722. A small table in the bottom right shows the correlation coefficient 0,67 and the average values 0,7875.

7.5-rasm.

bog'likni o'rganib, omuxta em miqdori yoki sifatining oshishi sut mahsuldorligining

oshishi bilan qanchalik bog'liqligini aniqlash mumkin. Xuddi shunga o'xshab, tahlil hayvonlarning fizik faollik darajasi ularning o'sishiga yoki vazn yig'ish tezligiga qanday ta'sir qilishini yoki rasionda muayyan mikroelementlarning mavjudligi ko'payish ko'rsatkichlari bilan qanday korrelyasiyalanishini ko'rsatishi mumkin. Bunday ma'lumotlar seleksionerlar va fermerlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradi: em – xagak rasionlarini optimallashtirish, saqlash sharoitlarini yaxshilash, hayvonlarning salomatligini mustahkamlash va ularning mahsuldorligini oshirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish, bu esa resurslardan yanada samarali foydalanish va xo'jalik foydasini oshirishga yordam beradi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

- 1) Korrelyatsiya deganda nimani tushunasiz va u qanday maqsadlarda ishlatiladi?
- 2) Korrelyatsion bog'liqlikning mohiyati nimadan iborat? Misollar keltiring.
- 3) Pirson korrelyatsiya koeffitsienti qanday hisoblanadi va u nimani ko'rsatadi?
- 4) Regression tahlil nima va u korrelyatsiyadan qanday farq qiladi?
- 5) Kobba–Duglas ishlab chiqarish funksiyasi qanday omillarni hisobga oladi va u qanday sohalarda qo'llaniladi?
- 6) Qishloq xo'jaligida korrelyatsion tahlilning ahamiyati nimada?
- 7) Chorvachilikda regression tahlil qanday masalalarni hal qilishga yordam beradi?
- 8) Korrelyatsiya koeffitsientining qiymatlari qanday interpretatsiya qilinadi?
- 9) Regression tenglamasining elementlari nimani anglatadi?
- 10) Qanday korrelyatsiya turlarini bilasiz? Ularning farqi nimada?
- 11) Korrelyatsion–regression tahlilning afzalliklari nimada?
- 12) Korrelyatsion–regression tahlilning kamchiliklari qanday?
- 13) Korrelyatsion–regression tahlil uchun qanday dasturiy ta'minotlardan foydalanish mumkin?
- 14) Qishloq xo'jaligida korrelyatsion–regression tahlilga doir misollar keltiring.
- 15) Chorvachilikda korrelyatsion–regression tahlilga doir misollar keltiring.
- 16) Korrelyatsiya va sabab–oqibat o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.
- 17) Qachon korrelyatsion–regression tahlilni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi?
- 18) Korrelyatsion–regression tahlil uchun qanday ma'lumotlar zarur?
- 19) Korrelyatsion–regression tahlil natijalarini qanday interpretatsiya qilish kerak?
- 20) Korrelyatsion–regression tahlilda qanday xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin?

Adabiyotlar

1. Aminov S.M., Muxamadiyev S.I., Rasulov S.Sh. Axborot kommunikatsion texnologiyalar fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.:ToshDAU, 2020 yil. – 248 bet.

2. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. I-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 188 b.

3. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. II-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2025. 200 b.

4. D. Watson and H. Williams Computer Science. Hodder Education, 2nd edition, 2023 year. – 404 pages.

5. G. Brown and D. Watson. Cambridge IGCSE ICT. Hodder Education, 3rd edition, 2023 year. – 571 pages.

Manbalar:

<https://axd.semestr.ru/econ/cobb-douglas.php> – Proizvodstvennaya funktsiya Kobba–Duglasa onlayn



6-mavzu. Kompyuter tarmog'i va undan foydalanish

Kompyuter tarmog'i. Tarmoq turlari

Tarmoq orqali ma'lumotlar uzatish, qabul qilish texnologiyalari

Tarmoqli ma'lumotlar almashinuvida ro'y beradigan xatoliklar

Intranet, ekstranet va internetning xususiyatlari, foydalanish sohalari va maqsadi. Ular o'rtasidagi farq va o'xshashliklar



Компьютер тarmog'i – bu ma'lumotlar va resurslarni almashish maqsadida o'zaro bog'langan ikki yoki undan ortiq kompyuterlar va boshqa qurilmalarning yig'indisi.

Ular simli yoki simsiz texnologiyalar orqali aloqa o'rnatib, fayllarni almashish, umumiy qurilmalardan foydalanish va turli xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi.

Tarmoqlarning asosiy vazifasi – qurilmalar o'rtasidagi aloqani ta'minlash va resurslarni samarali boshqarishdir.

Компьютер тarmog'i – bu ma'lumotlar va resurslarni almashish maqsadida bir-biri bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq kompyuterlar, serverlar, marshrutizatorlar va boshqa qurilmalarning to'plamidir.

Tarmoqlar simli (masalan, Ethernet kabellari) yoki simsiz (masalan, Wi-Fi) aloqa texnologiyalaridan foydalanishi mumkin va ular kichik uy tarmoqlaridan tortib, global Internetgacha bo'lgan turli xil o'lchamlarda bo'lishi mumkin.

Ular ma'lumotlarni uzatish, fayllarni almashish, printerlar kabi umumiy resurslardan foydalanish va turli xizmatlarni (masalan, elektron pochta, veb-saytlar va onlayn o'yinlar) taqdim etish imkonini beradi.

Tarmoqlarning asosiy maqsadi – qurilmalar o'rtasidagi aloqani osonlashtirish va resurslarni samarali taqsimlashdir.

"Kompyuter tarmoqlari turlari" va "Tarmoq turlari" tushunchalari o'rtasida farq bormi?

Kompyuter tarmoqlari turlari ko'proq tarmoqning arxitekturasini, masshtabi va qamrovi bo'yicha klassifikatsiyasini anglatadi. Masalan, LAN (Local Area Network), WAN (Wide Area Network), MAN (Metropolitan Area Network) va hokazo.

Bu turlar tarmoqning geografik joylashuvi va o'lchamlariga qarab aniqlanadi.

Tarmoq turlari esa tarmoqning ishlash prinsiplari, topologiyasi (tarmoq qurilmalarining joylashuvi) va protokollariga ko'proq e'tibor qaratadi. Bunga, masalan, kliyent-server tarmoqlari, peer-to-peer (teng-tengga) tarmoqlari, yulduzsimon, halqasimon, daraxtsimon va boshqa topologiyalar kiradi.

Demak, "kompyuter tarmoqlari turlari" tarmoqning "qayerda" va "qanchalik katta" ekanligini, "tarmoq turlari" esa "qanday ishlashi" va "qanday tashkil etilgani"ni ko'rsatadi.

Tarmoq turlari - bu tarmoqning qanday tashkil etilganligi, undagi qurilmalarning o'zaro qanday bog'langanligi va ma'lumotlarning qanday uzatilishiga qarab aniqlanadigan klassifikatsiyadir.

Tarmoq turlarini aniqlashda bir necha muhim jihatlar e'tiborga olinadi:

Tarmoq topologiyasi – bu tarmoq qurilmalarining (kompyuterlar, serverlar, kommutatorlar va boshqalar) bir-biriga nisbatan fizik yoki mantiqiy joylashuvi va o'zaro bog'lanish sxemasidir.

U tarmoqning arxitekturasini belgilab, ma'lumotlarning uzatilish yo'lini, tarmoqning ishonchliligini va samaradorligini aniqlaydi. Topologiya tarmoqni loyihalashtirishda muhim rol o'ynab, tarmoqning ishlash xususiyatlarini belgilab beradi.

Topologiya-tarmoqdagi qurilmalarning fizik yoki mantiqiy joylashuvi va bog'lanish sxemasi. Masalan, yulduzsimon (star), halqasimon (ring), to'rsimon (mesh), daraxtsimon (tree) va shinali (bus) topologiyalar mavjud.

Tarmoq arxitekturasini – bu tarmoqning asosiy ishlash prinsiplari va undagi qurilmalarning o'zaro munosabatlarini belgilovchi konseptual tuzilmadir.

U tarmoqning qanday vazifalarni bajarishi, ma'lumotlarni qanday qayta ishlashi va uzatishi, shuningdek, tarmoqdagi resurslarning qanday taqsimlanishini aniqlaydi. Tarmoq arxitekturasini tarmoqning masshtablanuvi, xavfsizligi va boshqarilishi kabi muhim jihatlariga ta'sir ko'rsatadi. Demak, tarmoq arxitekturasini -tarmoqning asosiy ishlash prinsipi belgilaydi. Bunga kliyent-server (client-server) va teng-tengga (peer-to-peer) tarmoqlari kiradi. Kliyent-server tarmog'ida markaziy server xizmatlarni taqdim etadi, teng-tengga tarmog'ida esa barcha qurilmalar bir xil huquqlarga ega.

Tarmoq protokollari – bu turli qurilmalar va tizimlar o'rtasida ma'lumot almashinuvini tartibga soluvchi qoidalar va standartlar to'plamidir.

Ular ma'lumotlarning qanday formatda uzatilishi, qabul qilinishi, qayta ishlalishi va xavfsizligini ta'minlashni belgilaydi. Protokollar tarmoqning ishlashini

ta'minlash, xatolarni aniqlash va tuzatish, shuningdek, turli xil qurilmalarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Tarmoqning asosiy protokollariga quyidagilar kiradi:

TCP/IP (Transmission Control Protocol/Internet Protocol): Internet va ko'pgina tarmoqlarning asosi bo'lib, ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish qoidalarini belgilaydi.

HTTP (Hypertext Transfer Protocol): Veb-brauzerlar va veb-serverlar o'rtasida ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi, veb-sahifalarni ko'rish imkonini beradi.

DNS (Domain Name System): Domen nomlarini IP manzillariga aylantiradi, bu esa veb-saytlarga oson kirish imkonini beradi.

SMTP (Simple Mail Transfer Protocol): Elektron pochta jo'natish uchun ishlatiladi.

FTP (File Transfer Protocol): Fayllarni tarmoq orqali uzatish uchun mo'ljallangan.

DHCP (Dynamic Host Configuration Protocol): Tarmoq qurilmalariga avtomatik ravishda IP manzillarni beradi.

SSL/TLS (Secure Sockets Layer/Transport Layer Security): Internet orqali uzatilayotgan ma'lumotlarni shifrlash orqali xavfsizlikni ta'minlaydi.

Bular tarmoqning eng muhim protokollaridan bir nechta xolos. Ular tarmoqning to'g'ri va xavfsiz ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Protokollar - tarmoqda ma'lumotlarning uzatilishi va qabul qilinishini tartibga soluvchi qoidalar to'plami.

Tarmoqning qamrov hududi – bu tarmoqning ulanish imkoniyati mavjud bo'lgan geografik hududni anglatadi.

U uyda kichik lokal tarmoqdan tortib, butun dunyoni qamrab oluvchi global tarmoqqacha bo'lishi mumkin. Qamrov hududi tarmoqning turiga, ishlatilayotgan texnologiyalarga va tarmoqning maqsadiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Wi-Fi tarmog'ining qamrov hududi marshrutizatorning quvvati va to'siqlarning mavjudligiga bog'liq bo'lsa, uyali aloqa tarmog'ining qamrov hududi esa mobil aloqa stansiyalarining joylashuviga bog'liq.

Tarmoqning geografik qamrovi

Tarmoqlarning geografik qamrovi turli xil bo'lishi mumkin va ularning asosiy turlari quyidagilar:

Lokal tarmoq (LAN - Local Area Network): Kichik hududni, masalan, uy, ofis yoki maktabni qamrab oladi.

Umuman, bir bino yoki bir nechta yaqin binolar ichida joylashgan qurilmalarni birlashtiradi.

Metropolitan tarmoq (MAN - Metropolitan Area Network): Shahar yoki kattaroq hududni qamrab oladi.

Bu tarmoqlar ko'pincha bir nechta LANlarni birlashtiradi va katta tezlikda ma'lumot uzatish imkonini beradi.

Keng qamrovli tarmoq (WAN - Wide Area Network): Katta geografik hududni, masalan, mamlakat yoki qit'ani qamrab oladi.

Internet eng katta WAN hisoblanadi va u dunyo bo'ylab millionlab qurilmalarni birlashtiradi.

Shaxsiy tarmoq (PAN - Personal Area Network): Shaxsiy qurilmalar atrofidagi kichik hududni qamrab oladi, masalan, Bluetooth orqali telefon va naushnik o'rtasidagi aloqa.

Tarmoq turlari tarmoqning samaradorligi, ishonchliligi va xavfsizligiga ta'sir qiladi.

Tarmoq orqali ma'lumotlar uzatish texnologiyalari – bu ma'lumotlarni bir qurilmadan ikkinchi qurilmaga tarmoq orqali yetkazib berish usullari va protokollari majmuidir.

Bu texnologiyalar ma'lumotlarni ishonchli, tez va xavfsiz tarzda uzatishni ta'minlaydi.

1) Simli texnologiyalar:

Ethernet: Eng keng tarqalgan simli texnologiya bo'lib, lokal tarmoqlarda (LAN) ishlatiladi. Ethernet ma'lumotlarni paketlarga bo'lib, ularni kabel orqali uzatadi. Uning turli xil standartlari mavjud (masalan, 10BASE-T, 100BASE-TX, 1000BASE-T), ular uzatish tezligi va kabel turiga qarab farqlanadi.

Optik tolali aloqa: Ma'lumotlarni yorug'lik signallari orqali optik tolalar orqali uzatadi. Bu texnologiya yuqori tezlik va katta masofalarga ma'lumot uzatish imkonini beradi. Optik tolali aloqa magistral tarmoqlarda, telekommunikatsiya va internet provayderlarida keng qo'llaniladi.

DSL (Digital Subscriber Line): Telefon liniyalari orqali ma'lumot uzatish texnologiyasi. DSL turli xil variantlarga ega (masalan, ADSL, VDSL), ular uzatish tezligi va masofaga qarab farqlanadi.

2) Simsiz texnologiyalar:

Wi-Fi: Simsiz lokal tarmoq (WLAN) texnologiyasi bo'lib, IEEE 802.11 standartlari asosida ishlaydi. Wi-Fi qurilmalarga simsiz ulanish imkonini beradi va uy, ofis, jamoat joylarida keng qo'llaniladi.

Bluetooth: Qisqa masofalarga simsiz aloqa qilish uchun mo'ljallangan texnologiya. Bluetooth asosan mobil telefonlar, eshitish vositalari, klaviaturalar va boshqa qurilmalarni ulash uchun ishlatiladi.

Mobil aloqa (3G, 4G, 5G): Mobil aloqa tarmoqlari orqali ma'lumot uzatish texnologiyalari. Bu texnologiyalar mobil qurilmalarga internetga ulanish va ma'lumotlarni uzatish imkonini beradi. 5G texnologiyasi yuqori tezlik va kam kechikishni ta'minlaydi.

Sun'iy yo'ldosh aloqasi: Sun'iy yo'ldoshlar orqali ma'lumot uzatish texnologiyasi. Bu texnologiya uzoq va qiyin erishiladigan hududlarda internetga ulanish imkonini beradi.

3) Ma'lumotlarni uzatish protokollari:

TCP/IP (Transmission Control Protocol/Internet Protocol): Internetning asosiy protokoli bo'lib, ma'lumotlarni paketlarga bo'lib, ularni manzilga yetkazishni ta'minlaydi. TCP ma'lumotlarni ishonchli yetkazib berishni kafolatlaydi, IP esa manzilni aniqlash uchun ishlatiladi.

UDP (User Datagram Protocol): TCPga o'xshash protokol, lekin ma'lumotlarni ishonchli yetkazib berishni kafolatlamaydi. UDP tezkorlikni talab qiladigan ilovalarda (masalan, video oqim, onlayn o'yinlar) ishlatiladi.

HTTP (Hypertext Transfer Protocol): Veb-brauzerlar va veb-serverlar o'rtasida ma'lumot almashish uchun ishlatiladigan protokol. HTTP veb-sahifalarni yuklash va ko'rish imkonini beradi.

FTP (File Transfer Protocol): Fayllarni tarmoq orqali uzatish uchun ishlatiladigan protokol.

Bu tarmoq orqali ma'lumotlar uzatish texnologiyalarining asosiy turlari. Har bir texnologiya o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega va ma'lum bir vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan.

Tarmoq orqali ma'lumotlarni qabul qilish texnologiyalari – bu tarmoqdan ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va foydalanishga tayyorlash usullari va vositalari majmuidir.

Ma'lumotlarni qabul qilish texnologiyalari tarmoq arxitekturasini, protokollar va dasturiy ta'minot bilan chambarchas bog'liq. Keling, asosiy texnologiyalarni batafsil ko'rib chiqamiz:

1) Fizik qatlam texnologiyalari:

NIC (Network Interface Card): Tarmoq interfeys kartasi kompyuterga tarmoqqa ulanish imkonini beradi. NIC tarmoqdan kelgan signallarni qabul qiladi va ularni kompyuter tushunadigan ma'lumotlarga aylantiradi. NIC simli (Ethernet) yoki simsiz (Wi-Fi) bo'lishi mumkin.

Simli va simsiz aloqa standartlari: Ethernet (IEEE 802.3), Wi-Fi (IEEE 802.11) kabi standartlar ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishning fizik qatlamini belgilaydi. Bu standartlar ma'lumotlarni modulyatsiya qilish, kodlash va uzatish usullarini aniqlaydi.

2) Ma'lumotlarni uzatish qatlami texnologiyalari:

Protokollar (TCP, UDP): TCP (Transmission Control Protocol) ma'lumotlarni ishonchli yetkazib berishni ta'minlaydi, ma'lumotlarni paketlarga bo'lib, ularni tartib bilan yetkazadi va xatolarni tekshiradi. UDP (User Datagram Protocol) esa tezkorlikni talab qiladigan ilovalarda (masalan, video oqim) ishlatiladi va ma'lumotlarni ishonchli yetkazib berishni kafolatlamaydi.

IP (Internet Protocol): IP protokoli ma'lumotlarni manzilga yetkazish uchun ishlatiladi. Har bir qurilma IP manziliga ega va IP protokoli ma'lumotlarni to'g'ri manzilga yo'naltirishni ta'minlaydi.

3) Tarmoq qatlami texnologiyalari:

Routerlar: Routerlar tarmoqlar o'rtasida ma'lumotlarni yo'naltirish uchun ishlatiladi. Ular ma'lumot paketlarining manzilini tahlil qiladi va ularni eng yaxshi yo'nalish bo'yicha jo'natadi.

Switchlar: Switchlar lokal tarmoqlarda (LAN) qurilmalar o'rtasida ma'lumotlarni yo'naltirish uchun ishlatiladi. Ular ma'lumot paketlarining MAC manzilini tahlil qiladi va ularni to'g'ri qurilmaga jo'natadi.

4) Transport qatlami texnologiyalari:

Socketlar: Socketlar dasturlarga tarmoq orqali ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish imkonini beradi. Socketlar IP manzil va port raqamidan iborat bo'lib, ular dasturlarga tarmoqqa ulanish va ma'lumot almashish imkonini beradi.

5) Dasturiy ta'minot texnologiyalari:

Veb-brauzerlar: Veb-brauzerlar HTTP protokoli orqali veb-serverlardan ma'lumotlarni qabul qiladi va ularni foydalanuvchiga ko'rsatadi.

Server dasturlari: Veb-serverlar, elektron pochta serverlari va fayl serverlari tarmoq orqali ma'lumotlarni qabul qiladi va ularni qayta ishlaydi.

API (Application Programming Interface): API dasturlarga boshqa dasturlar bilan ma'lumot almashish imkonini beradi. API veb-servislar, ma'lumotlar bazalari va boshqa dasturiy ta'minotlar bilan integratsiyalash uchun ishlatiladi.

6) Xavfsizlik texnologiyalari:

Firewalllar: Firewalllar tarmoqqa kiruvchi va chiquvchi ma'lumotlarni filtrlash orqali tarmoqni himoya qiladi. Ular ruxsat etilmagan kirishlarni bloklaydi va zararli dasturlardan himoya qiladi.

VPN (Virtual Private Network): VPN tarmoq orqali xavfsiz ulanishni ta'minlaydi. VPN ma'lumotlarni shifrlaydi va foydalanuvchining IP manzilini yashiradi.

Bu tarmoq orqali ma'lumotlarni qabul qilish texnologiyalarining asosiy turlari. Har bir texnologiya o'zining vazifasiga ega va ma'lumotlarni ishonchli, tez va xavfsiz tarzda qabul qilishni ta'minlaydi.

Tarmoq orqali ma'lumotlar almashinuvida ro'y beradigan xatoliklar deganda, ma'lumotlarni uzatish jarayonida yuzaga keladigan buzilishlar, yo'qotishlar yoki noto'g'ri yetkazib berish holatlari tushuniladi.

Bu xatoliklar turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin, masalan, tarmoq uskunasi dagi nosozliklar, signallarning susayishi, elektromagnit shovqinlar, dasturiy ta'minotdagi xatolar yoki noto'g'ri konfiguratsiya. Natijada, qabul qiluvchi qurilma noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni qabul qilishi mumkin, bu esa

dasturlarning noto'g'ri ishlashiga, ma'lumotlarning buzilishiga yoki tarmoqning umumiy ish faoliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Intranet, ekstranet va internet – bu kompyuter tarmoqlari bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, foydalanish sohasiga va maqsadlariga ega. Intranet – bu tashkilot ichida foydalaniladigan xususiy tarmoq bo'lib, xodimlarga ichki resurslarga (fayllar, dasturlar, ma'lumotlar bazalari) kirish imkonini beradi.

Ekstranet – bu tashkilotning intranetining bir qismi bo'lib, tashqi sheriklar (mijozlar, yetkazib beruvchilar) uchun cheklangan kirish imkoniyatini ta'minlaydi. Internet – bu global ommaviy tarmoq bo'lib, dunyo bo'ylab millionlab kompyuterlarni birlashtiradi va har kimga turli xil resurslarga (veb-saytlar, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar) kirish imkonini beradi.

Ularning o'xshashligi shundaki, ularning barchasi ma'lumotlarni uzatish uchun TCP/IP protokolidan foydalanadi. Farqi esa, intranet va ekstranet xavfsizlik devorlari (firewall) bilan himoyalangan, internet esa ochiq tarmoq hisoblanadi. Intranet tashkilot ichidagi kommunikatsiyani va hamkorlikni yaxshilashga qaratilgan, ekstranet tashqi sheriklar bilan hamkorlikni osonlashtiradi, internet esa global miqyosda ma'lumot almashish va kommunikatsiya uchun xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

Kompyuter tarmog'i. Tarmoq turlari:

- 1) Kompyuter tarmog'i nima?
- 2) Tarmoqning asosiy maqsadi nima?
- 3) LAN (Local Area Network) nima?
- 4) WAN (Wide Area Network) nima?
- 5) MAN (Metropolitan Area Network) nima?
- 6) PAN (Personal Area Network) nima?
- 7) Server nima?
- 8) Mijoz (Client) nima?
- 9) Peer-to-peer tarmoq nima?
- 10) Tarmoq topologiyasi nima?

Tarmoq orqali ma'lumotlar uzatish, qabul qilish texnologiyalari:

- 11) Ma'lumotlarni uzatishda qanday protokollar ishlatiladi?
- 12) TCP/IP nima?
- 13) HTTP nima?
- 14) FTP nima?
- 15) Tarmoq kartasi (NIC) nima vazifani bajaradi?
- 16) Router nima?
- 17) Switch nima?

Tarmoq orqali ma'lumotlar almashinuvida ro'y beradigan xatoliklar:

- 18) Tarmoqda xatoliklar qanday yuzaga kelishi mumkin?
- 19) Ma'lumotlar yo'qolishi nima?
- 20) Xatoliklarni aniqlash usullari qanday?

Intranet, ekstranet va internetning xususiyatlari, foydalanish sohalari va maqsadi:

- 21) Intranet nima?
- 22) Ekstranet nima?
- 23) Internet nima?
24. Intranetning maqsadi nima?
25. Internet va intranet o'rtasidagi farq nima?

Adabiyotlar

1. Aminov S.M., Muxamadiyev S.I., Rasulov S.Sh. Axborot kommunikatsion texnologiyalar fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.:ToshDAU, 2020 yil. – 248 bet.
2. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. I-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 188 b.
3. Urdushev X., Mavlyanov M., Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. II-qism. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2025. 200 b.
4. D. Watson and H. Williams Computer Science. Hodder Education, 2nd edition, 2023 year. – 404 pages.
5. G. Brown and D. Watson. Cambridge IGCSE ICT. Hodder Education, 3rd edition, 2023 year. – 571 pages.

Mavzuga oid yangi adabiyotlar

Шыныбекон D.A., Uskenbayeva R.K., Serbin V.V., Duzbayev N.T., Moldagulova A.N., Duysebekova K.S., Satybaldiyeva R.J., Xasenova G.I., B. Urmashev. Informasionno-kommunikatsionnyye texnologii. 1-ye izd. Uchebnik. – Almaty, 2017. – 559 str.

V.Olifer, N. Olifer «Kompyuternyye seti. Printsipy, texnologii, protokoly. Uchebnik» (2016)

E. Tanenbaum, D. Uezeroll «Kompyuternyye seti» 5-ye izd. (2016)

A. Robachevskiy «Internet iznutri. Ekosistema globalnoy seti» (2017)

<https://proglib.io/p/network-books/-8> knig po kompyuternym setyam

D. Kurouz, K. Ross «Kompyuternyye seti. Nisxodyashiy podxod» (2016)

A. Sergeyev «Osnovy lokalnykh kompyuternykh setey» (2016)

D.Kurouz, T. Ross «Kompyuternyye seti. Nastolnaya kniga sistemnogo administratora» (2016)

Telekommunikatsiya (yunoncha *tele* – uzoq, masofa va lotincha *communicatio* – aloqa) so'zi - uzoq masofalarga axborotlarni uzatish.

Qo'shimcha materiallar

Telekommunikasiya vositalari - ma'lumotlarni uzoq masofalarga uzatish uchun texnik, dasturiy va tashkiliy vositalar to'plami.

Telekommunikasiya tarmog'i-bu bir-biriga ulangan va ma'lum topologiya (konfigurasiya) tarmog'ini tashkil etuvchi telekommunikasiya vositalari to'plamidir.

Telekommunikatsiya - axborotni simli, radio, optik yoki boshqa elektromagnit tizimlar orqali har xil turdagi texnologiyalar orqali uzatish.

Aloqa tarmog'i (umumiy holda) -bu axborotni masofadan uzatish uchun aloqa tizimi.

Tarmoq turlari:

- televideniye va radioeshittirish tarmoqlari,

- telefon va uyali aloqa tarmoqlari,

- kabel televideniyesi tarmoqlari, - kompyuter (hisoblash) tarmoqlari.

Kompyuter tarmog'i-taqsimlangan hisoblash tizimidir. Kompyuter tarmog'i quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompyuter uskunalari va tarmoq qurilmalari;

- aloqa kanallari;

- dasturiy ta'minot, u axborotni tarmoq kompyuterlaridagi o'zaro ta'siri boshqaradi.

Raqamli telekommunikatsiya tarmoqlarida berilganlar ma'lum bir aniq tuzilishga ega bo'lgan va bir butun sifatida qaraladigan xabarlar ko'rinishida shakllanadi.

Berilganlar (xabarlar) uzluksiz va diskret(uzlukli) shakllarida bo'lishi mumkin.

Uzluksiz ma'lumotlar nutq, ovoz, video kabi vaqtning uzluksiz funktsiyasi sifatida ifodalanishi mumkin.

Diskret ma'lumotlar belgilardan iborat bo'ladi.

Telekommunikatsiya tarmog'ida ma'lumotlarni uzatish ularning fizik ko'rinishi - signallari yordamida amalga oshiriladi.

Kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarni uzatish uchun quyidagi turdagi signallar qo'llaniladi: elektr (elektr toki); optik (yorug'lik); elektromagnit (radioto'lqinlarning – elektromagnit nurlanish maydoni).

Aloqa liniyalarini ikki sinfga ajratish mumkin: kabel (yelektr va optik-tolali aloqa liniyalari); simsiz (radio liniyalari).

Serverga asoslangan tarmoqlar keng tarqalgan. Server - kompyuter tarmoqni boshqaradigan va foydalanuvchilarga o'z resurslariga tarmoqqa kirishni ta'minlovchi kompyuter.




Mijozlar- tarmoq resurslari bilan ishlashi mumkin bo'lgan kompyuterlardir. Uzatish muhiti - kompyuterlarni ulash usullari.

Tarmoqda foydalaniladigan resurslar turiga ko'ra serverlar quyidagilarga bo'linadi:

a) faylli server (fayl serveri). Server o'zida tarmoqda birgalikda foydalaniladigan fayllar va dasturlarni saqlaydi. Bu tizimda foydalanuvchi kompyuteri tizimga murojaat qilish va ishlash uchun dasturiy ta'minotga ega bo'ladi.;

b) chop etish serveri. Server etarlicha kuchli bo'lmasligi mumkin. Unga turli ma'lumotlarni chop etadigan tarmoq printeri ulanadi. O'rnatilgan dasturiy ta'minot tarmoqni turli tugunlaridagi axborotlarni chop etish imkonini beradi.

Chop etish navbat bilan



boshqariladi;

c) ma'lumotlar serveri. Bu server ma'lumotlar bazasini saqlaydi, u tarmoqdagi turli kompyuterlarda tahrirlangan ma'lumotlardan iborat bo'ladi. U turli xil rejimlarda har xil xizmat so'rovlarga qilishi mumkin. server ma'lumotlarni yuborishi mumkin. Ya'ni server mijoz so'rovlarini o'zi qayta ishlashi, yoki ma'lumotlarni qayta ishlab mijozga jo'natishi mumkin;

d) dastur serveri amaliy dasturiy ta'minotning markazlashtirilgan ombori bo'lib, fayl serveriga adekvat emas. Ilova serveri bajariladigan amaliy dasturlarni saqlaydi. Bunday dasturni ishga tushirish uchun mijoz tarmoq orqali serverga ulanishni o'rnatishi kerak. Ilova mijoz kompyuterida emas, shu serverda ishlaydi;

e) pochta serveri. Bu server xabarlar orqali axborot almashishda ishtirok etadi. Ma'lumotlar pochta serverida saqlanadi va undan foydalanuvchi o'ziga qulay vatda foydalanish mumkin.



Tarmoq deganda, - kompyuterlar, terminallar va boshqa qurilmalarning ma'lumot almashishni ta'minlaydigan aloqa kanallari bilan o'zaro bog'langan majmuasi tushuniladi.

Kompyuterlararo ma'lumotlarni o'zaroalmashishni ta'minlab beruvchi tarmoqlar kompyuter tarmoqlari deb ataladi.

Computer **NetWork** - kompyuter tarmog'i degan ma'noni anglatadi. **Network** (inglizcha **net**- tarmoq va **work**- ishlash so'zlaridan olingan).

Kompyuter tarmog'i - xabarlar almashinuvi amalga oshirish uchun aloqa kanallari va kommutasiya vositalari bilan yagona tizimga birlashtirilgan, foydalanuvchilarni

dasturiy, texnik va axborot va tashkiliy resurslariga murojaatni ta'minlaydigan kompyuterlar majmui.

Kompyuter tarmog'i kompyuterlar va aloqa qurilmalaridan iborat uzal (tugun)lar va ularni bog'lovchi tarmoqlar (aloqa kanali) to'plamini ifodalaydi.

Kompyuter tarmoqlari turlari. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar

Kompyuter tarmoqlarini ularning geografik joylashishi, masshtabi hamda hajmiga qarab bir nechta turlarga ajratish mumkin, masalan:

- **Lokal tarmoqlar** - bir korxona yoki muassasadagi bir nechta yaqin binolardagi kompyuterlarni o'zaro bog'lagan tarmoq (**Local Area Network, LAN**);

- **Mintaqaviy tarmoqlar** – mamlakat, shahar, va viloyatlar darajasida kompyuterlarni va lokal tarmoqlarni maxsus aloqa yoki telekommunikasiya kanallari orqali o'zaro bog'lagan tarmoqlar (**Metropolitan Area Network, MAN**).

- **Global tarmoqlar** - o'ziga butun dunyo kompyuterlarini, abonentlarini, lokal va mintaqaviy tarmoqlarini telekommunikasiya (kabelli, simsiz, sun'iy yo'ldosh) aloqalari tarmog'i orqali bog'lagan yirik tarmoq (**Wide Area Network, WAN**);

Lokal tarmoq - bir korxona yoki muassasadagi bir nechta yaqin binolardagi komp'yuterlarni o'zaro bog'lagan tarmoq. **Lokal tarmoqlar** bir binoda yoki bir-biriga yaqin binolarda joylashgan kompyuterlarda o'zaro axborot almashish imkonini beruvchi tarmoq hisoblanadi.



Bunday tarmoqlarda axborot almashinish aloqa kabellari (ba'zan, telefon tizimi yoki radiokanal) orqali amalga oshiriladi.

Bunda foydalanuvchilar tarmoqqa ulangan kompyuterlardagi ma'lumotlarni birgalikda qayta ishlash va ma'lumotlarni ayirboshlash va dastur, printer, modem va boshqa qurilmalardan birgalikda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi.


Mintaqaviy tarmoqlar - mamlakat, shahar, va viloyatlar darajasida kompyuterlarini va lokal tarmoqlarni maxsus aloqa yoki telekommunikasiya kanallari orqali o'zaro bog'lagan tarmoqlar. Demak, mintaqaviy tarmoq — biror tuman, viloyat yoki respublika miqyosidagi kompyuterlarni o'zida mujassamlashtirgan tarmoqdir.

Bunday tarmoqda bir nechta markazlashgan, ya'ni lokal tarmoqlarni birlashtiruvchi juda quvvatli **serverlar** mavjud bo'ladi va bunday serverlar o'rtasidagi axborot **aloqa kabeli, optik tolali yoki sun'iy yo'ldosh radioapoqa** kanallari yordamida uzatiladi.

Global tarmoqlar - o'ziga butun dunyo kompyuterlarini, abonentlarini, lokal va mintaqaviy tarmoqlarini telekommunikasiya (kabelli, simsiz, sun'iy yo'ldosh) aloqalari tarmog'i orqali bog'lagan yirik tarmoqdir.



Global tarmoq — dunyoning ixtiyoriy nuqtasidagi kompyuterlarni o'zida birlashtirish imkoniga ega bo'lgan tarmoq. Bu tarmoqqa Internet tarmog'ini misol qilib keltirish mumkin.



Kompyuter tarmog'ining maqsadi foydalanuvchilarni barcha kompyuterlar resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Axborotni uzatish tezligi birliklari: **Bit/sekund** aloqa muhiti orqali uzatiladigan bitlar soni; **Kbit/sekund**; **Mbit/sekund**; **Gbit/sekund** - bir soniyada aloqa muhiti orqali uzatiladigan milliardlab bitlar soni.

Axborot kanallarining sig'imi ular orqali ma'lum vaqt oralig'ida uzatiladigan axborot hajmi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida axborot kanallarining o'tkazish qobiliyatini anglatadi.

Kompyuter tarmoqlari topologiyasi. **Topologiya** - kompyuter tarmog'ini umumiy tuzilishi, u kompyuter tizimlarini tarmoqdagi joylashishini, ularni o'zaro birlashtirishini ifodalaydi.

Shinali topologiya. Bu topologiyada tarmoqdagi barcha kompyuterlar bitta kabel orqali



kabeldan tarmoqdagi barcha kompyuter (stansiya)lar birgalikda navbatma-navbat foydalaniladi. Umumiy shina topologiyasida, alohida kompyuterdan uzatiladigan xabarlar, tarmoqqa ulangan barcha kompyuterlar tomonidan qabul qilinadi.


Tarmoqqa ulangan kompyuterlarning bir-nechtasini ishdan chiqishi, boshqa kompyuterlarni tarmoqda normal ishlashiga xalaqit bermaydi.

Yulduzsimon topologiya. Bu topologiyada maxsus tarmoq adapteri ishlatiladi. Har bir kompyuter tarmoqqa tarmoq adapteri yordamida alohida kabel bilan tarmoqni birlashtiruvchi qurilmaga ulanadi.

Doirali topologiya. Bu topologiyada berilganlar bir kompyuterdan boshqa kompyuterga estafeta bo'yicha uzatiladi. Agar birorta kompyuter, boshqa kompyuterga mo'ljallangan ma'lumotlarni olsa, u uni doira bo'yicha boshqa kompyuterlarga uzatadi. Agar uzatilayotgan ma'lumotlar o'sha kompyuterning o'ziga tegishli bo'lsa, ma'lumotlar boshqa kompyuterlarga uzatilmaydi.

Kompyuter tarmoqlarida ma'lumot uzatishni tashkil etish.

Kompyuterlar orasida ma'lumotlarni almashish **parallel** yoki **ketma-ket** amalga oshirilishi



Signallarni uzatish. Simsiz tarmoqlar

Tarmoq apparat va dasturiy ta'minoti - axborot almashishga mo'ljallangan va foydalanuvchilarga yagona tarmoq resurslariga kirishni ta'minlovchi apparat va dasturiy ta'minot majmui.

Hozirgi vaqtda kompyuterlarni ulash uchun juda ko'p turli xil qurilmalar-tarmoq apparatlari ishlatiladi.

Lokal tarmoqlarda ko'proq **tarmoq adapterlari (tarmoq kartalari), xablar, kommutatorlar, marshrutizatorlar** ishlatiladi.

Kompyuter tarmoqlari mantiqiy va fizik darajalardan tashkil iborat magistral axborot tuzilmalari bo'lib, ularning asosiy maqsadi axborot almashinuvidir.

Fizik darajasi bo'yicha kompyuterlarning fizik ulanishini ta'minlovchi tarmoq elementlari tushuniladi. Bunday elementlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

1)**Tarmoq interfeyslari:** tarmoq kartalari (tarmoq adapteri), standart yoki kengaytirilgan kommunikatsiyalar (tarmoq parallel portlari) .

2)**Ma'lumotlarni uzatishning tarmoq muhiti:** koaksial kabel, o'rama juftli kabel yoki optik tolali kabellar

3)Uzel (tugun)lar majmui; marshrutizatorlar, konsentratorlar, xablar, svitch (switch)lar, qurilmaga ulash vositalari: terminatorlar, konnektorlar, raz'emlar, zaglushkalar.

Mantiqiy darajasi - bu tarmoqning mavjud fizik elementlaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi turli xil **dasturiy ta'minotlar tushuniladi.**

Tarmoq dasturiy ta'minotlarni quyidagi turlarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1)**Drayverlar va operatsion tizimlarning tarmoq protokollari.** 2) **Server dasturlari.** 3)**Tarmoq servislari yoki xizmatlari mijozlari**

Apparat ta'minoti tarkibiga: kompyuterlar va mantiqiy qurilmalar, tashqi qurilmalar va diagnostika apparaturalari, energetika jixozlari, batereya va akumlyatorlar kiradi.



Tarmoq adapteri-bu kompyuterni lokal tarmoqqa ulash qurilmasi. Tarmoq adapteri kompyuterning ona platasi bo'sh slotiga o'rnatiladi.

Tarmoq kartasi- kompyuterni lokal tarmoqqa ulash qurilmasi (ichki qurilma). **Adapter** ham tarmoq kartasi bo'lib, u kompyuterni lokal tarmoqqa ulashni tashqi qurilmasi. Adapterni ishlashi uchun xonaga **router** o'rnatilishi lozim. **Router (marshrutizator)** lokal tarmoqni shakllantiuvchi qurilma.

Wi-Fi-adapter USB flesh disk kabi bo'ladi. Uni ishlashi uchun **Wi-Fi**-tarmog'i majud bo'lishi lozim. **Wi-Fi-adapterlar** tashqi va ichki (o'rnatiladigan) turlarga ajratiladi.

Ethernet (RJ-45) tarmoq porti (1Gbit/s)-kompyuterga bevosta tarmoqni ulovchi port. Unga kompyuter Ethernet kabeli bilan ulanadi.Port-bu to'g'ridan-to'g'ri kompyuterning ona platasiga yoki shaxsiy kompyuterga o'rnatilgan qo'shimcha



Варианты адаптеров 3.5 mini jack

platalarda o'rnatiladigan elektron qurilma. Portlar kompyuterlarni tashqi qurilmalarga ulash qurilmasi. Ular kompyuter va tashqi qurilmalar: printerlar, modemlar, raqamli kameralar va boshqalar o'rtasida ma'lumot almashish uchun mo'ljallangan.


Turlari: klaviatura "Sichqoncha"ni ulash portlari;
Ethernet — lokal tarmoqning router, modem va boshq. qurilmalarini ulash portlari;



USB –klaviatura, siqoncha, printer, skanerlar, smartfonlar va boshq. tashqi qurilmalarini ulash porti.

Paralell portlar

Juft o'ramli kabel



Optik tolali kabel



Koaksial kabel

Internet uchun xab, u konsentrator deb ham ataladi. Xab shaxsiy kompyuterlar, smartfonlar, noutbuklar uchun Internetga ulanish imkonini beradi.

Kommutator (switch) – kompyuter, noutbuk, tarmoq printerlarini tarmoqqa ulash qurilmasi

1) Drayverlar va operatsion tizimlarning tarmoq protokollari. 2) Server dasturlari. 3) Tarmoq servislari yoki xizmatlari mijozlari



Tarmoq operatsion tizimlari (**Network Operating System - NOS**) - tarmoqdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatishni ta'minlaydigan dasturlar to'plami.

Tarmoq operatsion tizimi amaliy platforma funksiyalarini bajaradi, har xil turdagi tarmoq xizmatlarini taqdim etadi va abonent tizimlarida ishlaydigan dastur jarayonlarining ishlashini qo'llab-quvvatlaydi. Tarmoq operatsion tizimlari mijoz-server yoki birrangli arxitekturasidan foydalanadi. NOS komponentlari tarmoqqa kiritilgan barcha ish stantsiyalarida mavjud bo'ladi.

NOS tarmoqning o'zaro bog'langan yuqori darajali protokollarini aniqlaydi, tarmoqni asosiy funksiyalarini bajarilishini ta'minlaydi.

Bularga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:- tarmoq ob'ektlarini adreslash;- tarmoq xizmatlarining ishlashi; - ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash;- tarmoq boshqaruvi.

TCP/IP protokollari uchun yaratilgan maxsus protokollar steklariga quyidagilar kiradi:

SMTP (Simple Mail Protocol) – elektron pochta;

HTTP (Hyper Text Transfer Protocol) Gipermatn uzatuvchi protokol

FTP (File Transfer Protocol) Fayl uzatuvchi protokol

SMTP (Simple Mail Transfer Protocol) Elektron xat yuboruvchi protokol

POP3 (Post Office Protocol) Elektron xatlarni qabul qiluvchi protokol

NNTP(News Net Transfer Protocol) Telekonferensiya protokoli;

Internetda adres tushunchasi. Sahifa, fayl yoki boshqa resursning Internetda joylashishini aniqlovchi noyob adres – **URL** deb ataladi. Masalan, **ttp://www.samvmi.uz**, **http://www.my.gov.uz**

1)Adres kompyuter xotirasining qismlarini, kompyuter kiritish-chiqarish qurilmalari portini, hisoblash tarmog'i kompyuterlarini hamda boshqa ma'lumot manbalarini yoki ularni uzatish uchun belgilangan joyni aniqlaydi.

2) Adres hisoblash tarmoqlarida uzatilayotgan ma'lumotlarni qabul qiluvchi yoki jo'natuvchilarni aniqlovchi ma'lumotlar ketma-ketligi

IP-adres 32 bit uzunlikka ega bo'lib, u o'lchami 8 bitdan iborat to'rta qismga ajratiladi va ular tarmoq texnologiyasida ishlatiladigan oktet (maydon) atamasi bilan yuritiladi. Agar 1 oktet 8 bit o'lchamga ega bo'lsa, **IP**-adresni har bir okteni 0 dan 255 tagacha sonlarni qabul qiladi. **IP**-adresni 4 ta qismdan iborat, nuqta bilan ajratiladigan yozuvga birlashtiriladi. Istalgan **IP-adres ikkita qismdan** iborat bo'ladi: **tarmoq adresi** (tarmoq identifikatori, **Network ID**) va joriy tarmoqdagi **xost adresi** (xost identifikatori, **Host ID**). Bunday tuzilish kompyuterlarni **IP-adresi** turli xil tarmoqlarda bir xil nomerlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

W.X.Y.Z. 0.0.0.0 - 255.255.255.255

W	X	Y	Z
0 – 255	0 – 255	0 – 255	0 – 255

Hisoblash texnikasi vositalarida berilganlarni saqlash uchun ikkilik sonlari qo'llaniladi. Shu boisdan **IP**-adreslari ikkilik ko'rinishda ifodalaniladi

Ikkilik formati **11000000 10101000 00000011 00011000**

O'nlik formati **192.168.3.24**

Yuqorida qayd qilganimidek, **IP**-adres 32 bitdan iborat bo'ladi va to'rta oktentga, ya'ni 8 bitdan iborat maydonga ajratiladi.

Tarmoqda kompyuterni joylashuvini aniq ko'rsatish uchun, **IP-adres** ikkita qismga ajratiladi, 1-si tarmoq nomerini, 2-si esa shu tarmoqdagi kompyuterni nomerini ifodalaydi.

Demak, **IP** adreslar, nuqta bilan ajratiladigan oktet deb nomlanuvchi to'rta qismdan iborat o'nlik sanoq tizimidagi sonlar orqali ifodalanadi: **W.X.Y.Z.**


Demak **IP**-adres tarmoq adresini va kompyuterni shu tarmoqdagi adresini ifodalaydi. Adresdagi sonlar chapdan o'ngga qarab o'qiladi. Masalan, **192.168.69.249** Bu yerda: **192.168.69.**– qism tarmoqlar adresi, **249**- foydalanuvchi kompyuterini adresi. **IP**-adreslar statistik va dinamik bo'lishi mumkin. Serverlar doimiy **IP**-adresga ega bo'ladi. Foydalanuvchi kompyuterini **IP**-adres, Internet xizmatini ko'rsatuvchi provayder tomonidan taqdim qilinadi. Sonli **IP**-adreslar kompyuterlarni identifikasiya qilishni yagona usulidir.

IP-adres aniqlash: Пуск – Все программы – Стандартные – Командная строка

Domen tushunchasi. Domen - bir umum nomda qayd qilingan Internetdagi kompyuterlar guruhlarining nomi.

DNS-nomlarni domenli tizimi, u Internetda nomlarni adreslash uchun qo'llaniladi.

Domen, bu Internetda domenli nomlarni aniq bir zonasi. Domen nom, xalqaro tashkilotlarga, mamlakatlarga, mintaqalarga, yuridek va fizik shaxslarga mansub bo'lishi mumkin. Demak, **DNS (Domain Name System- nomlarni domenli tizimi)** protokol bo'lib, u domenlarni belgili nomlari bilan kompyuterning **IP**-adreslarini mosligini o'rnatadi.



Masalan, uch harfli domenlar jamoatchilik resurslarini ifodalaydi:

- **.com**- tijorat resurslartarmoqqa bog'liq resurslar
- **.org** – notijorat tashkilotlar
- **.info** – axborotli tugunlar;
- **.biz** – biznes uchun resurslar
- **.name**- fizik shaxslar uchun domenli zonalar.

Domenlarning darajalari


• Yuqori darajali domenlar ma'lum bir alomatiga ko'ra tuziladi. Ularda kompyuterlar geografik alomatlariga ko'ra yoki faoliyat turiga qarab birlashtiriladi.

• Ikkinchi darajali domenlar kompaniya, tashkilotlar, fermalar, muassasalar nomlariga tegishli bo'ladi va yuqori darajali domen egalari tomonidan registrasiya qilinadi.

• Uchinchi darajali domenlar kompaniyalarni ichki tuzilmalariga mansub bo'ladi

• To'rtinchi darajali domen, kompyuter nomini ifodalaydi.

Masalan, www.my.gov.uz



7(5)-mavzu. Bulutli texnologiyalar

Bulutli hisoblashning umumiy xususiyatlari. Ta'rifi

Zamonaviy infratuzilma echimlarining rivojlanish tendentsiyalari.

Virtualizatsiya texnologiyalari

Bulutli hisoblash asoslari

Bulutli hisoblashni tarqatish modellari. Bulutli texnologiyalar: Dropbox, Google Drive va Yandeks Disk.

Tasavvur qiling, sizda shaxsiy kompyuter bor, lekin u sizning uyingizda emas, balki boshqa joyda uyda turibdi. Siz bu kompyuterga internet orqali ulanib, undan foydalanishingiz mumkin. Xuddi shu narsa "bulut" deyiladi.

"Bulut" - bu internet orqali foydalanish mumkin bo'lgan kompyuter resurslari (serverlar, dasturlar, ma'lumotlar omborlari va hokazo) to'plami.

Bu resurslar sizning kompyuteringizda emas, balki boshqa joyda saqlanadi va siz ularga internet orqali kirishingiz mumkin.

Demak, "bulut" deganda, internet orqali talab bo'yicha taqdim etiladigan kompyuter resurslari (serverlar, ma'lumotlar omborlari, dasturiy ta'minot, tarmoqlar, saqlash va boshqalar) to'plami tushuniladi.

Bu resurslar odatda uchinchi tomon provayderi tomonidan boshqariladi va foydalanuvchilar ularga istalgan vaqtda, istalgan joydan kirishlari mumkin. "Bulut" foydalanuvchilarga o'zlarining fizik infratuzilmalarini saqlash va boshqarish zaruratidan xalos bo'lish imkoniyatini beradi, shuningdek, resurslarni tez va oson miqyosda kengaytirish yoki qisqartirish imkonini beradi, bu esa xarajatlarni kamaytirishga va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Masalan, **Telegram messenjerida** bulutning asosiy xizmatlaridan biri bu foydalanuvchi ma'lumotlarini (xabarlar, media fayllar, kontaktlar va boshqalar) saqlashdir. Telegram barcha ma'lumotlarni o'z serverlarida saqlaydi, bu esa foydalanuvchilarga turli qurilmalardan o'z akkauntlariga kirish va ma'lumotlarga erishish imkonini beradi. Bundan tashqari, Telegram bulutli texnologiyalar yordamida fayllarni almashish va guruhlarda katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash imkoniyatini taqdim etadi, bu esa foydalanuvchilarga o'z qurilmalarida joy tejash imkonini beradi.

Bulutli texnologiyalar - bu internet orqali kompyuter resurslarini (serverlar, saqlash, dasturiy ta'minot, tarmoqlar va boshqalar) taqdim etishga asoslangan hisoblash modeli bo'lib, foydalanuvchilarga o'zlarining fizik infratuzilmalarini boshqarish zaruratidan xalos bo'lish imkonini beradi.

Bu texnologiyalar resurslarni talabga ko'ra taqdim etish, ularni tez va oson miqyosda kengaytirish yoki qisqartirish, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bulutli texnologiyalar turli xizmatlarni (IaaS,

PaaS, SaaS) o'z ichiga oladi va biznesga moslashuvchan, tejamkor va innovatsion yechimlarni taqdim etadi.

Bulut texnologiyalari - bu "bulut"ni yaratish va undan foydalanish uchun ishlatiladigan texnologiyalar.

Bu texnologiyalar sizga o'z kompyuteringizda saqlash o'rniga, ma'lumotlaringizni "bulut"da saqlash, dasturlarni "bulut"da ishlatish va boshqa ko'plab narsalarni qilish imkonini beradi.

Bulutli hisoblash - bu internet orqali kompyuter resurslarini (serverlar, saqlash, dasturiy ta'minot, tarmoqlar va boshqalar) taqdim etishga asoslangan hisoblash modeli.

Bu model foydalanuvchilarga o'zlarining fizik infratuzilmalarini boshqarish zaruratidan xalos bo'lish imkonini beradi, resurslarni talabga ko'ra taqdim etish, ularni tez va oson miqyosda kengaytirish yoki qisqartirish, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Bulutli hisoblash - bu "bulut" yordamida kompyuter ishlarini bajarish. Masalan, siz fotosuratlaringizni "bulut"da saqlashingiz, hujjatlarni "bulut"da yaratishingiz va tahrir qilishingiz yoki o'yinlarni "bulut"da o'ynashingiz mumkin.

Soddaroq qilib aytganda, "bulut" - bu internet orqali foydalanish mumkin bo'lgan katta kompyuter, "bulut texnologiyalari" - bu "bulut"ni yaratish va undan foydalanish usullari, "bulutli hisoblash" - bu "bulut" yordamida kompyuter ishlarini bajarish.

